

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI
“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

Himoyaga ruxsat etildi
“Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri
_____ dots.E.X. Avazov
2014 yil “ 24 ” may

5230100-“IQTISODIYOT” (TARMOQLAR VA SOHALAR
BO'YICHA) TA'LIM YO'NALISHI KUNDUZGI BO'LIM
409 – GURUH TALABASI
ESHBOEV QAHRAMON QO'CHQOR O'G'LI

**“Oliy ta'limni moliyalash va marketing xizmatini
takomillashtirish” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Termiz DU Iqtisodiyot bo'limi
boshlig'i N. Xursandov

Bajardi:

Eshbaev Q.Q.

Termiz – 2014

REJA.

KIRISH

1. BOB. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish va boshkaruv amaliyoti

1.1.Oliy ta'limni moliyalashning uziga xos xususiyati

1.2.Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy omillari

1.3. Oliy ta'lim tizimida byudjet

2.BOB. Oliy ta'lim muassasalarini boshkarishni rivojlantirish omillari va istiqboli.

2.1.Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish va uning taxlili

2.2. Oliy ta'limni moliyalashda byudjet va nobyudjet resurslarni samaradorligi

2.3. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni rivojlantirish istiqbollari

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan va kullanilgan adabiyotlar

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimiz axolisining kariyb 35 foizini 16 yoshgacha bulgan bolalar, 60% ziyodini 30 yoshgacha bulgan yoshlar tashkil etishini xisobga oladigan bulsak, bu isloxotlarning roli va axamiyati uz-uzidan tushunarli va ravshan buladi Kabul kilgan dasturga muvofik, mamlakatimizda 9+3sxemasi buyicha 12 yillik majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etilgan .YUrtimizda amalga oshirilatan modelning prinsipial xususiyatlari avvalo shundaki, umumta'lim maktabidagi 9 yillik ukishdan sung ukuvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb xunar kollejlarda va akademik litseylarda taxsil olib ,ularning xar biri umumta'lim fanlar bilan birga mexnat bozorida talab kilinadigan 2-3 ta mutaxassislik buyicha kasb-xunarlarni egallaydi.

Uzbekistonda ta'lim barcha uchun majburiy va bepul ekanligi konunlarimizda belgilab kuyilgan . Bu usib kelayotgan YAngi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim olish bilan birga anik mutaxassislikka va kasb xunarga ega bulishini takozo etadi . Bu ayniqsa kizlarimiz uchun muximdir . Biz bunda xar qaysi yangi tashkilot bulayotgan yosh oilada avvlo qizlarning uzi tanlagan muayyan mutaxassislikkka, kasb-xunarga, xayotga uzining mustakil fikri va qatiy pozitsiyasiga ega bulishini goyat muxim axamiyat tutishini nazarda tutamiz. SHuning uchun xam barcha zarur fanlar buyicha umumiy ta'lim beradigan maktablardagi 9 yillik taxsildan keyin yoshlarimiz,ayniqsa kizlarimiz majburiy tarzda kasb xunar kollejlari va akademik litseylarida ukishni davom ettirishi, 2-3 ta zamonaviy mutaxassislik buyicha kasb xunarga ega bulishi uta muximdir.

Ta'lim jarayonini islox etish va mexnat bozorida ta'lab kilinadigan yukori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muxim urin egallamoqda.Utgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugingi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy ukuv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.

Uzbekistonda ta'lim soxasini rivojlantirish va islox tishga yunaltirilgan yillik xarajatlar yalpi ichki maxsulotning 10-12 % tashkil etayotgani va bu tizimning

davlat byudjeti xarajatlardagi ulushi 35 %dan ortigini tashkil etishi uz-uzidan mazkur soxaga karatilayotgan ulkan etiborning yakkol tasdigi xisoblanadi.

Dunyoning boshqa davlatlarida yalpi ichki maxsulotning urtacha 10-12% ni tashkil etadigan bunday kursatgichni kamdan kam uchratish mumkin.

Zamonaviy bosqichida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanishi va uni takomillashtirish yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Faberman B.L, SHepel V.M., Peregudov L.V., Merkulova I.V., Lukyanova A.YU., Starodubtseva. ye.B. larning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan¹.

Respublikamiz olimlaridan Vaxabov A.V., Rashidov O.YU., Abdullaeva SH.² M.Saidov³ va yana bir qator olimlarning ilmiy ishlarida ipotekali kreditlashning ayrim masalalari tadbiq qilingan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun ularni ijtimoiy iktisodiy tomondan moliyalashtirishni takomillashtirishning mavjudligi bizning tadqiqotimizning bosh maqsadi va unga asosan vazifalarni belgilab berdi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bo'lib, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish, mablag` bilan ta'minlashni, moliyalash va boshqarishning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Yuqorida qayd etilgan ishimizning bosh maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Oliy ta'limni moliyalashning uziga xos xususiyatini yaratish va axamiyatini asoslash:
- Oliy ta'lim muassasalarni rivojlantirishning ijtimoiy, iktisodiy omillarini ko'rsatish:

¹ Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik. -T.: Moliya. 2005. -510 bet

² Vaxabov A.V., Jumaev N.X., Xoshimov e.A. Jaxon moliyaviy – iktisodiy inkirozi: sabablari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. T.: Akademnashr 2009y. 141 b.

³ M.Saidov Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash 2010. -285 b

- Oliy ta'lim tizimida davlat byudjetining ahamiyatini taxlil etish:
- Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshkarish va uning taxlilini asoslash:
- Oliy ta'limni moliyalashda byudjet va nobyudjet resurslarni samaradorligini oshirish:
- Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni rivojlantirish istiqbollari

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib, Uzbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Termiz davlat universiteti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning amaldagi xolati, shuningdek, O'zbekiston sharoitida uni takomillashtirish mexanizmini shakllantirishning nazariy-uslubiy masalalari hisoblanadi.

Olingan natijalarni amaliy ahamiyati shundaki, undagi alohida amaliy takliflar va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida, avvalo Termiz davlat universiteti faoliyatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 65 bet, 3 ta chizma va 3 ta jadvallarni o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishning yangiliklari. Xozirgi kunda Universitetda «ma'naviyat va ma'rifat bulimi va iktidorli talabalar akademiyasi» faoliyat kursatmokda. Universitetda talabalarning intellektual va ma'naviy saviyasini oshirishga, tarix, ma'naviyat va kadriyatlarimizni xurmat qilish muammolariga kata e'tibor berilmokda.

1.BOB. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish va boshqaruv amaliyoti.

1.1. Oliy ta'limni moliyalashning o'ziga xos xususiyati.

“Talim soxasidagi ishlarimizni sarxisob kilar ekanmiz, Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi katoriga kiradigan “Inssad” xalkaro biznes maktabining 2012 yilgi “Innovatsiyalarining global indeksi” ma’ruzasida... dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzida taxlil kilingan.Taxlilning asosiy kapitalini rivojlantirish darajasi bulib mazkur kursatgich buyini egallagan.Ta’lim tizimini esa Uzbekiston –shunga e’tibor beringlar-dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi urinni band etgan”.

Kadrlar tayyorlashning yangi modeli, bozor iqtisodiyotiga o'tish ta'lim moliyaviy – iqtisodiy tartiblarini shakllantirishda, xususan, byudjetdan moliyalashni byudjetdan tashqari mablag'lar bilan to'ldirishda jiddiy o'zgarishlar qilishni talab qilmoqda.

Davlat ta'lim programmolari va standartlari doirasida ta'lim xizmati ko'rsatish, birinchi galda ta'lim muassasasiga to'lov asosida qabul qilish, mulkning turli shaklidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan shartnoma asosida mutaxassislar tayyorlash oliy maktabga moliyaviy tushumlar keladigan muhim manbalardir.

SHartnoma bo'yicha mutaxassis tayyorlash ta'lim muassasasining korxonalar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirishning ko'pgina ehtimoliy shakllaridan biri hisoblanadi. Xozirgi paytda ta'limni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish, ko'p bo'g'in mutaxassislari tayyorlashga o'tish, ta'lim turlari bosqichini moliyalashga yangicha yondashuv ishlab chiqildi.

Ta'lim uchun ta'lim oluvchilarning o'zi haq to'lashi ta'lim muassasasini moliyalashning ikkinchi manbai hisoblanadi. Ta'lim muassasalari to'lovining turli shakllarini joriy qilish masalasini hal etishda ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonunning 4 – moddasiga asoslanadi. U ikkita ancha muxim vaziyatni xisobga olgan xolda fuqarolarning ta'lim olish xuquqini belgilaydi:

- axoli asosiy qismining daromad darajasi oliy ta'lim olish bo'yicha xarajatlarni ko'tarishni ancha muammoli qilib qo'ymoqda;
- ta'limning tekinligi xususida yuzaga kelgan ijtimoiy ruxiyat ta'lim xizmatiga haq to'lash zaruratiga nisbatan salbiy munosabatni tug'dirmoqda.

Oliy maktab kadrlar salohiyatini saqlashga sezilarli ulush qo'shayotgan tijorat tuzilmalarsiz ta'lim shaklining to'lov asosidaligi muammosini hal etib bo'lmaydi. Ularning moliyaviy yordami, ayrim hollarda ancha salmoqli bo'lmoqda. O'qituvchilar aspirantlar va talabalarni tijorat korxonalarida ishida qatnashishga jalb etish o'quv jarayonini mavjud iqtisodiy amaliyot bilan uyg'unlashishi uchun sharoit yaratadi o'qituvchilar tarkibi yuqori malaka darajasiga ega bo'lishi va uni saqlashiga ko'maklashadi. Tijorat korxonalardan tushumlar (ijara haqi, daromadning bir qismini ta'lim muassasasini rivojlantirish fondiga o'tkazish) ayrim xollarda ta'lim muassasasi moddiy – texnika negshizini mustahkamlashda muhim manba hisoblanadi.

Tijorat tuzilmalar faoliyatidan maksimal foyda chiqarish uchun, kasbiy va boshqa farqlarga qaramay, ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim muassasasi va uning tijorat tuzilmasining amalda faoliyat ko'rsatish modeli tuzilgan. Bu modelda ikkita variant ko'zda tutilgan: birinchisi – tijorat tuzilmalari ta'lim muassasasining bo'linmalari hisoblanadi; ikkinchisi – tijorat tuzilmalari shunday hisoblanmaydi. Har ikkala variantda ta'lim muassasalari va tijorat tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlar butun majmui aniq belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat oliy maktabni moliyalashning muhim manbai hisoblanadi. Xalqaro aloqalarni qattiq markazlashgan boshqaruvidan to'la mustaqillikka o'tilishi ta'lim muassasalarining xalqaro aloqalari faollashuviga olib keldi. Buning ob'ekti esa ta'lim jarayoni, tadqiqotlar olib yurish faoliyati, informatsiya xizmati ko'rsatish hisoblanadi. Bu ilmiy – texnikaviy shartnomalar, respublika ta'lim muassasalari bilan chet el ta'lim muassasalari va firmalar o'rtasida o'zaro foydali tadbirkorlik bitimlarining tuzilishi ko'payishiga olib keladi.

CHet el mamlakatlari uchun mutaxassislar tayyorlash byudjetdan tashqari tushumlarning muhim manbaidan biri hisoblanadi (davlat yo'li bilan respublika ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan va ta'limni tugatayotgan talaba hamda aspirantlar bundan istisno, yangi qabul faqat to'lov asosida bo'ladi). SHu munosabat bilan chet ellik ta'lim oluvchilarni tayyorlash qanchaga tushishligi belgilanadi.


Xo'jalik shartnomalari tuzish yo'li bilan sanoat tashkilotlari va ilmiy – tadqiqot muassasalari bilan ilmiy – texnikaviy hamkorlik ta'lim muassasalarini moliyalashning byudjetdan tashqari moliyalashning an'anaviy va muhim manbalaridan biridir.

YUqorida aytilganlardan tashqari, pulli ta'lim xizmati, noshirlik faoliyati va boshqalar moliyalashni byudjetdan tashqari an'anaviy manbalari hisoblanadi.

SHunday qilib, ta'lim muassasasining qo'shimcha byudjetdan tashqari moliyalashni jalb etish faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim programmaları va standartlari doirasidagi ta'lim xizmati (mulkning turli huquqiy – tashkiliy shaklidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan shartnoma bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, kontrakt asosida chet ellik o'qituvchilarni tayyorlash);

Oliy ta'lim tizimining moliyalashtirish yo'llari⁴. 1.1.1-chizma



⁴ Muallif tomanidan shlangan

- qo'shimcha ta'lim programmalari, maxsus kurslari va tayyorlov turkumlari; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning turli shakllari; tayyorlov kurslari; konsultatsiya xizmati (davlat programmalari va standartlari doirasida);
- ilmiy – tadqiqot va tajriba – ishlab chiqarish xizmati (turli xil korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikdagi faoliyat, ortiqcha ilmiy jihozlarni sotish);
- tadbirkorlik faoliyati (ijara, xaridorgir jihozlar, tovarlarni sotish, vositachilik xizmati, boshqa muassasalar faoliyatida hissador bo'lib qatnashish, aktsiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatbaho qog'ozlar sotib olish va ulardan daromad qilish, foyda keltiruvchi boshqa operatsiyalar);
- tashqi iqtisodiy faoliyat (ishga aloqador faoliyatlar, birgalikdagi ilmiy faoliyat);
- noshirlik faoliyati;
- informatsiya va xo'jalik faoliyati (kutubxonaning kseronuxlash, adabiyotlarni tanlash xizmati, kitobni yo'qotganlik va uzoq foydalanganlik boqimandasi; o'qituvchilar, xodimlar, talabalarning turli xil xo'jalik xizmati ko'rsatishi; ta'lim muassasasi turar joy fondi va yotoqxonalaridan xizmat ko'rsatish);
- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning xayriya badallari, shuningdek xayriya asosida chinakam moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi xomiylik kengashlari, bitiruvchilar uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlarining xayriya jamg'armalari.

1.2 Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy omillari

Ta'limning yangi modeli, bozor iqtisodiga o'tish ta'lim moliya-iqtisod mexanizmini shakllantirish, xususan, byudjetdan moliyalashga byudjetdan tashqari manbadan qo'shimcha qilishni va jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Xozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashning qo'shimcha byudjetdan tashqari manbalarini jalb etishdagi faoliyati tobora tijorat tavsifiga ega bo'lmoqda, garchi tijorat faoliyatining asosiy maqsadi hamon intellektual, o'quv, ilmiy, madaniy va ishlab chiqarish imkoniyatini saqlash hamda rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lsada. Demak vazifa shundan iboratki, ta'limni boshlang'ich tijorat bilan uyg'unlashtirishning samarali shaklini topishdir.

Davlat ta'lim dasturi va standartlari doirasida ta'lim xizmati ko'rsatish oliy maktabga mablag' tushadigan manba hisoblanadi. Bu-oliy ta'lim muassasalariga pullik qabul, mutaxassislar tayyorlash. Mazkur ishni amalga oshirish korxonalar, tashkilotlar va mulkning barcha turdagi muassasalari bilan shartnoma tuzish asosida olib boriladi, bu iqtisodiy tavsifdagi ko'plab masalalarni, xususan, pul o'tkazish muddati, uning miqdori, xarajatlar va ularni qoplash, pul mablag'i sarf-xarajatlari moddasi, shartnomalarni yuridik to'g'ri rasmiylashtirilishi, tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilash, shartnomaga amal qilmaslik javobgarligi, «pul to'laydigan» va «to'lamaydigan» talabalar o'rtasidagi munosabatni xisobga olish va h.k.ni xal etish bilan bog'liq.

Bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida mutaxassislar tayyorlash soxasida narx hosil bo'lishi ularni tayyorlash qanchaga tushishligini belgilash, mutlaqo yangicha ma'no kasb etadi va uch xolatni xisobga olgan xolda quyidagicha yondashishni taqazo etadi:

- davlat buyurtmasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash amalga oshiriladigan byudjetdan moliyalash me'yorlari;

- ixtisoslar, oliy ta'lim muassasalari joylashgan o'rin, professor- o'qituvchilar tarkibi, moddiy-texnika negizi va x.k.lar bo'yicha farqlanadigan muayyan ta'lim muassasasida mutaxassislar tayyorlashga sarf bo'ladigan amaldagi xarajatlar;
- tayyorlash uchun xaq o'z ichiga ish haqidan yuqori bo'lgan miqdorni olishi mumkin.

Buyurtmachi uchun inson kapitali nazariyasiga muvofiq mutaxassislar tayyorlash uchun xaq bu inson kapitaliga qo'yilma, investitsiya, ular pul daromadi nuqtai nazaridan, kelgusi natijani ta'minlaydi. Tabiiyki, bunday investitsiyada muayyan tavakkalchilik bor. Bu shuni anglatadiki, oliy ta'lim muassasalariga mutaxassis tayyorlash uchun ish haqidan ortiq mablag'ni to'lab, buyurtmachi bunda oliy ta'lim muassasasi bilan foydani bo'lishib oladi, oliy ta'lim muassasasi esa kelgusida foydaning taqsimlanishida ishtirok etadi.

SHartnoma bo'yicha mutaxassis tayyorlash oliy ta'lim muassasalarining korxonalar bilan munosabatlarini rivojlantirishning mumkin bo'lgan bir talay imkoniyatlaridan biridir. Bu bozor iqtisodiyotini shakllanishi sharoitlarida tubdan o'zgaradi, chunki, bu ikki tuzilmaning bir-biriga zarurligi va manfaatdorligi yuzaga keladi hamda oshib boradi.

Xozirgi vaqtda ta'limni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashuvi, muttaxassislar tayyorlashning ko'p bosqichli tizimiga o'tish, ta'lim turli bosqichlarini moliyalashga yangicha yondashish ishlab chiqilgan. Bu muttaxassislar tayyorlashni byudjetdan tashqari moliyalashning umumiy yo'nalishini ochib beradi, u quyidagichadir: kasbiy tayyorgarlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning uchun shuncha katta ulushni byudjetdan tashqari moliyalash o'z zimmasiga olishi kerak.

Oliy maktabni moliyalashning boshqa manbai ta'lim uchun o'qiyotganlarning o'zi xaq to'lashidir.

Oliy ta'lim muassasalari to'lovning turli shakllarini joriy etish masalasini xal etishda O'zbekiston respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga amal qiladi⁵.

⁵ Ta'lim to'g'risidagi qonun

Ta'lim uchun xaq to'lash muammosi oliy maktab mutaxassislar salohiyatini saqlab qolishga salmoqli xissa qo'shuvchi tijorat tuzilmasisiz xal etilishi mumkin emas. Ularning moliyaviy yordami ba'zi xollarda juda salmoqli bo'ladi. O'qituvchilar, aspirantlar va talabalarni tijorat korxonalarida ishida qatnashishga jalb etish o'quv jarayonini mavjud iqtisodiy amaliyot bilan qo'shilishiga imkon yaratadi, o'qituvchilar tarkibi yuqori darajada kasbiy malakaga ega bo'lishi va uni saqlab turishga ko'maklashadi. Tijorat korxonalarida tushumlar ayrim xollarda oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnikaviy negizini mustahkamlovchi muxim manba hisoblanadi (ijara xaqi, foydaning bir qismini oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish fondiga o'tkazish). Tijorat tuzilmalari tufayli oliy ta'lim muassasalarida ta'mirlash tiklash ishlari, texnika va jihozlar sotib olish imkoni paydo bo'ladi. Tijorat korxonalarida oliy ta'lim muassasasi fani muammolarini xal etishda faol qatnashadi, jamoaning yuqori malakali ilmiy va ishlab chiqarish tizimini yaratishdan moddiy mafaaddorligini oshirishda yordam berishadi. Biroq oliy ta'lim muassasasi tijorat tuzilmalarini bunyod etish va ular faoliyat ko'rsatishidan oliy maktabning maqsadi: mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlar yuqori darajasi bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari orasidagi mavjud kasbiy va boshqa farqlarga qaramay tijorat tuzilmalar faoliyatidan yuqori foyda olish uchun oliy ta'lim muassasasi va uning tijorat tuzilmasi amaliy faoliyati modeli tuzildi. Bu modelda ikki talqin-tijorat tuzilmalari oliy ta'lim muassasasi tarkibi ekanligi; tijorat tuzilmasi bunday bo'lmasligi ko'zda tutilgan. Xar ikki talqin oliy ta'lim muassasasi va tijorat tuzilmasi o'rtasidagi butun munosabatlar majmuini aniq ifodalaydi.

Hozirgi paytda keng qo'llanayotgan ijara munosabatlari oliy maktabda, bir tomondan, oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnika negizi yetarlicha rivojlanmaganligi, ikkinchi tomondan, mavjud mulkiy munosabatlar va amaldagi qonunchilik hujjatlari tufayli cheklangan. Bu hujjatlarda esa oliy ta'lim muassasalari faqat mustaqil tadbirkorlik faoliyati natijasida sotib olingan mulkni tasarruf etishi mumkinligi ko'zda tutilgan.

Bu vaziyatni o'zgartirish oliy ta'lim muassasalari ijara huquqini rivojlantirishi mumkin bo'ladi. Buning uchun, avvalo, ular mulkiy huquqiy doirasini kengaytirish lozim. Oliy ta'lim muassasalari, buning uchun, faqat, o'zlariga operativ boshqarish uchun berilgan mulkdan mustaqil foydalanibgina qolmay balki, ularni mustaqil tasarruf ham etishlari lozim. SHunda oliy ta'lim muassasalari xaqiqiy mulk egasiga aylanadi, keng erkinlik oladi, yuqori darajada tashabbus ko'rsatadi, mulkdan foydalanishning samaradorlik usullarini topadi, demak uning ma'suliyati sezilarli darajada oshadi.

Oliy maktabni qo'shimcha moliyalashning muhim manbai bo'lib, tayney iqtisodiy faoliyat xisoblanadi. Xalqaro aloqalarni kuchli markazlashtirilgan boshqaruvdan to'la mustaqil munosabat olib borishga o'tkazilishi oliy ta'lim muassasalarining tashqi faoliyat olib borishini kuchaytiradi, bu faoliyat asosini o'quv jarayoni, tadqiqot, axborot xizmati tashkil etadi. Bu ilmiy-texnikaviy shartnomalar, respublika oliy ta'lim muassasalarining chet el oliy ta'lim muassasalari va firmalari bilan tadbirkorlik bitimlari tuzishini keskin oshiradi.

CHet mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlash ham byudjetdantashqari mablag' kelishining muhim manbai xisoblanadi. SHu munosabat bilan chet elliklarni o'qitish qancha turishligini aniqlash zarurati vujudga keladi. Muammo shundaki, chet el fuqarolarini o'qitishning eng quyi darajada to'lanadigan xaq miqdorini belgilash talab etiladi. Albatta, chet elliklarni o'qitish yagona qiymatini ma'muriy tarzda belgilash mumkin emas, chunki turli oliy ta'lim muassasalariga beriladigan imtiyozlar turlichadir. Lekin ular xozirgacha to'plangan tajriba asosida belgilanadi va uyg'unlashtiriladi. Xaq to'lash masalasi oliy ta'lim muassasalari beradigan diplom sifati, uni xalqaro tashkilotlar, ishbilarmonlar dunyosi, jamoatchilik tomonadan tan olinishi masalasi, oliy ta'lim muassasalari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishiga bog'liq.

Erkin tashqi iqtisodiy faoliyat oliy ta'lim muassasalariga chet el sarmoyasidan foydalanish, zarur jihozlar harid qilish, shuningdek o'quv jarayonini sifat jixatdan takomillashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari tashqi iqtisodiy

faoliyat natijasida qo'lga kiritilgan valyuta oliy ta'lim muassasalariga keng xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, chet elda o'tadigan konferentsiyalarda qatnashish, talabalarga respublikadan tashqarida tajriba orttirish imkonini beradi, ya'ni, umuman O'zbekiston oliy maktabi va fanining jaxon ta'lim tizimiga uyg'unlashuviga ko'maklashadi.

Xo'jalik shartnomasi tuzish asosida sanoat korxonalarini va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilish oliy ta'lim muassasasini byudjetdan tashqari moliyalashning an'anaviy va muhim manbalaridan xisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish, ularni amalga oshirishning yangi shakllarini topish, hozirgi zamon taraqqiyotiga moslash ko'pgina oliy ta'lim muassasasi uchun moliyalashning qo'shimcha manbaini izlashning asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Ilmiy- tadqiqot olib borish faoliyati hamon oliy ta'lim muassasasini moliyalashning qo'shimcha manbai bo'lib qolmoqda.

SHunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim muassasasining vazifasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va olib borish bo'yicha katta va turli-tuman ishlarni amalga olish, moliyalashning byudjetdan tashqari manbalarini izlash va jalb etishdan iboratdir. Oliy maktabda byudjetdan tashqari moliyalashni yanada kengaytirish va takomillashtirish, tijorat faoliyatini rivojlantirish ishlab chiqarish bilan uyg'unlashishning turli shakllaridan foydalanish bilan bog'liq. Bunda mutaxassislar va raxbarlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha faoliyatni tashkil etish aloxida ahamiyat kasb etadi (istiqbolda ham shunday bo'lib qoladi), bu esa mehnat hamda ta'lim xizmati bozoridagi vaziyatni mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish talablarining o'zgarishiga tezkorlik bilan moslashish uchun o'rganishni talab etadi. Oliy maktab kuchli intellektual negiz va ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha soxalari bo'yicha mutaxassis xodimlarga ega. SHuning uchun moliyalashning byudjetdan tashqari qo'shimcha manbalarini jalb etishda, asosiysi, oliy ta'lim muassasasi faolligi xisoblanadi. CHunki, sustkashlik bugungi, bozor raqobati kuchaygan kunda oliy ta'lim muassasasini istiqboldagi taraqqiyotdan maxrum etishi mumkin. Talabalar, aspirantlar va o'qituvchilarni moliyalashning byudjetdan tashqari manbalarini

izlash va jalb etish bo'yicha ishlarga keng tortish mazkur faollik ko'rinishlaridan biridir. YUqorida aytilganlardan tashqari to'lov asosida ta'lim xizmati ko'rsatish, noshirlik faoliyati va boshqalar ham byudjetdan tashqari an'anaviy manba sanaladi.

Byudjetdan tashqari faoliyat asosiy turlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Ta'lim xizmati soxasi:

- ta'limning to'lov-kontrakt shakli;
- oliy ta'lim muassasasiga kirishga tayyorlov;
- korxonalar bilan shartnoma asosida mutaxassislarni taqsimlash;
- ikkinchi oliy ma'lumot olish;
- turli xil biznes-maktablar tashkil etish;
- chet tillarni jadal o'rgatish kurslarini tashkil etish;
- maxsus sertifikatlar beriladigan kurslarda qo'shimcha ta'lim berish (programmachilar, buxgalterlik auditorlik va x.k.);
- jismoniy va yuridik shaxslar uchun to'lov asosida konsultatsiyalar tashkil etish;
- pulli qisqa muddatli kurslar va seminarlar tashkil etish.

2. Ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati:

- xo'jalik shartnomasi asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlari;
- konsalting va ma'lumotnoma-axborot faoliyati;
- mintaqalarda yuqori texnologiyani joriy etish bilan bog'liq tadbqiqiy faoliyat;
- ilmiy jihozlar va uskunalar lizingini tashkil etish;
- xukumat muassasalari, boshqaruvning xududiy idoralari yoki tijorat tuzilmalarining buyurtmasiga ko'ra fanlararo mujassam tadqiqotlar;
- kichik va o'rta biznesga ilmiy-texnikaviy yordam ko'rsatish;
- ilmiy-texnikaviy parklar va yangiliklar inkubatoriylarini tashkil etish;
- tijorat va xo'jalik xisobi asosidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan yakka tartibdagi shartnoma bo'yicha ilmiy ishlar olib borish;
- oliy ta'lim muassasasi olimlarining kashfiyot va ixtirolariga patent va litsenziya sotish;

- tijorat firmalari va korxonalar bilan ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalar tashkil qilish;
- chet ellik investorlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tuzish;
- to'lov asosida ilmiy-amaliy konferentsiya va seminarlar tashkil etish;
- oliy ta'lim muassasalarining ta'lim va ilmiy-tadqiqot xizmatlarini reklama qilish;
- auditorlik faoliyatini tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida man etilmagan ilmiy-ishlab chiqarish tavsifidagi boshqa innovatsiya faoliyati turlari olib borish.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyati:

- chet ellik talabalar, aspirantlar, magistrlar va tajriba orttiruvchilar ta'limini tashkil etish;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda fakultetlar tashkil qilish;
- xorijiy sheriklar bilan qo'shma korxonalar tuzish;
- chet el jamg'armalari bilan oliy ta'limni qo'llab-quvvatlash programmalarida qatnashish;
- O'zbekiston talabalarini chet el oliy ta'lim muassasalariga yuborish;
- turli xil chet el investitsiyasini jalb etish.

4. Tijorat faoliyati:

- darsliklar, o'quv-uslubiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar chop etish;
- davriy nashrlar chiqarish;
- reklama faoliyati tashkil etish;
- bo'sh xonalarni ijaraga berish;
- xonalar uzoq muddatli ijarasi (lizingi);
- ta'til vaqtida bo'shab qolgan yotoqxonalarni ijaraga qo'yish;
- majlislar zali, auditoriyalarni konferentsiya, pulli mashg'ulotlar o'tkazish uchun ijaraga berish;
- talabalar, xodimlar va aholi uchun xizmat soxasi:
- umumovqatlanishni tashkil qilish;
- sog'lomlashtirish maskanlarining davolash, sog'lomlashtirish xizmati;
- sport majmualari va o'yingoxlar xizmati;

- maishiy xizmat (sartaroshxona, kimyoviy kir yuvish, kosibchilik va x.k.);
- pulli bolalar bog'chasi va maydonchasi tashkil etish;
- tijorat tashkilotlariga oliy ta'lim muassasasi ramzi, rekvizitlaridan foydalanish huquqini berish;

5. Xomiylik:

- korxonalar, tashkilot va xususiy mulk barcha turidagi firmalardan xomiylik mablag'larini jalb etish;
- jihozlarni beg'araz berish (audio-video, kompyuter orgtexnikasi, o'quv-amaliyot uskunalari, yozuv qog'ozlari va x.k.);
- kutubxona jamlanmasini to'ldirish (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, kataloglar, badiiy adabiyot va x.k.);
- chet el investitsiyasini jalb etish (kichik-bosmaxona, avtotransport, o'quv-amaliyot jihozlari, o'quv adabiyotlari);

6. Oliy ta'lim muassasalari Murabbiylar kengashini rivojlantirish jamg'armasi:

- davlat korxonalarining ko'ngilli badallari;
- kooperativ tashkilotlar ko'ngilli badallari;
- fuqarolar ko'ngilli badallari;
- chet el investorlarining ko'ngilli xomiylik badallari;
- Murabbiylik kengashining chet el firmalari bilan qo'shma korxonalaridan keladigan daromad;
- tijorat banklari va boshqa moliya muassasalari bergan kreditlar;
- Murabbiylik kengashi nomiga kelgan boshqa tushimlar.

Faoliyat turli ko'rinishlarini va moliyalashning qo'shimcha manbalarini jalb etishni kengaytirish bo'yicha barcha choralarni ko'rib, oliy ta'lim muassasalari xaddan ziyod tijoratga berilib keta olmaydilar, chunki, oliy maktab jamiyatning muhim ijtimoiy institutidir, u jamiyatning aqliy va ma'naviy salohiyatini oshiradi. SHuning uchun uni tijoratlashtirish yo'nalishi ustavda ko'rsatilgan faoliyat maqsad va vazifalarga zid kelmagan taqdirdagina o'zini oqlagan bo'ladi, uning qayta shakllanishiga olib kelmaydi.

Oliy ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarishning muhim usuli bo'lib, resurs usuli, xususan, moliyaviy usul xisoblanadi. Davlat oliy ta'lim muassasasida resurslar tuzilishi mehnat va moddiy resurslardan tashkil topadi. Masalaga ancha keng yondashilsa, ya'ni axborot to'plovchi resurslar imkoni va resurslar boshqa turlarini aytish mumkin. Bular muayyan ma'noda ikkilamchidir, chunki, oqibatda, bari bir xodimlar mehnati yoki ular faoliyatining moddiy shartlari atribut sifatida namoyon bo'ladi. SHu munosabat bilan moddiy resurslarni ajratib ko'rsatish zarur, shuningdek uning tarkibidagi intellektual mulkni ham ta'kidlash joizdir. Xususan ishlab chiqarish omili sifatidagi oliy ta'lim muassasasi xodimlari tadbirkorlik qobiliyatini xisobga olish talab etiladi. Resurslar moddiy qismida, birinchi galda, byudjetdan tashqari faoliyat xisobiga shakllangan moliyaviy resurslar muhim o'rin tutadi.

O'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatidagi oliy ta'lim muassasalarining resurs (aktiv)lari o'ziga xosligi quyidagichadir:

- nomoddiy aktivlar ahamiyati sezilarli va tobora oshib bormoqda;
- laboratoriya-eksperiment jihozlaridan sanoatdagidek jadal foydalanila olmasligi; uning nodirligi, yuqori qiymati va likvidligi, bu oliy ta'lim muassasasi maxsulotining raqobatbardoshligini pasaytiradi;
- inson kapitalining nodirligi va yuqori malakasi, ya'ni ilmiy-pedagog xodimlar; ularni, bir tomondan, mehnat resursi sifatida garchi oliy ta'lim muassasasida qimmat turishi, ikkinchi tomondan, talabalardek arzon ishchi kuchi mavjud bo'lsada;
- oliy ta'lim muassasasi barcha tur resurslari (ham mehnat, ham moddiy) cheklanganligi, bular byudjetdan tashqari faoliyatga jalb etilishi mumkin. Mazkur resurslar faqat mutloqgina emas, balki nisbiy ham. CHunki ulardan asosan byudjetdan moliyalashtiriladigan ta'lim va ilmiy jarayonda foydalanish ustuvor hamda majburiy xisoblanadi, bunda byudjetdan tashqari faoliyatni tashkil etish qiyinlashadi.

Zamonaviy iqtisod resurs (aktiv)larga oid quyidagi tushunchalardan foydalaniladi; asosan, aylanma, nomoddiy.

Moddiy mas aktivlar, bular uzoq muddat foydalaniladigan va daromad keltiradigan xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan moddiy bo'lmagan ob'ektlardir. Moxiyati, bu-tadqiqot va ishlanmalar oldidan keladigan natijalar. Xo'jalik oborotiga jalb etilib, narx qiymatiga ega bo'lib, ular moddiy mas aktivga aylanadi. Amaldagi buxgalteriya xisobi haqidagi qoidaga muvofiq moddiy mas aktivlar tarkibida yer maydonidan, patent, litsenziya, tovar belgisi, nou-xau, programmaviy maxsulot, monopol huquq va imtiyoz, xususan faoliyatning litsenziyaviy turi va x.kdan foydalanish huquqi bo'ladi. Moddiy mas aktivlar ta'lim iqtisodida muhim jixatlardan biri bo'lib qoladi. Nomoddiy aktivlarni boshqarish asosiy fondlarni boshqarish bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Intelektual mulk va uning muxofazasi, patentlar va nou-xau bilan savdo qilishni kengaytirish haqidagi qonunchilik rivojlangan sari ahamiyat kasb eta boshlaydi. SHuni ta'kidlash muhimki davlat OTM tizimida intellektual mulk huquqining sub'ekta bo'lib, OTMning o'zigina emas, balki, ilmiy-pedagogik xodimlarining bir qismi ham xisoblanadi. Bu OTMdagi byudjetdan tashqari faoliyat jarayonidagi iqtisodiy munosabatni murakkablashtiradi.

Moliyaviy resurslar aylanma aktivlarning bir qismi hisoblanadi va bir tomondan, OTMni saqlash va rivojlantirishni, ikkinchi tomondan, byudjetdan tashqari soxadagi ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlaydi. OTM moliyaviy resurslarini shakllantirish manbai, umumiy tarzda, quyidagilardir:

- byudjet mablag'lari, ya'ni turli darajadagi byudjet mablag'lari davlat ta'lim standartlarini ta'minlashga ajratilgan mablag'lar va ta'sischi (davlat) pul badallari;
- turli xil byudjetdan tashqari faoliyatni amalga oshirishdan olingan mablag';
- ta'lim uchun to'lov;
- banklar va boshqa kreditorlar krediti;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayriyalari va maqsadli badallari.

OTM moliya mexanizmi tuzilishiga davlat moliya siyosati sezilarli ta'sir etadi. Davlat boshqaruv mexanizmida ham byudjetga to'lovlar, ham byudjetdan moliyalash birdek muhimdir.

Byudjetga to'lovlar OTM o'z moliya bazasini safarbar etish tartibiga oladi, shunday qilib o'z tasarrufida qolgan xususiy moliyaviy resurslar ushi miqdoriga ta'sir etadi. Amaldagi qonunchilik oliy ta'lim muassasasi tadbirkorlik va tadbirkorlik bo'lmagan faoliyatini soliqqa tortishning turli tizimini o'rnatadi, moliya resurslarini safarbar qilish ko'lamini turli faoliyatlar samarali nisbatiga bog'liq qilib qo'yadi. Bu oliy ta'lim muassasasiga faoliyatning tadbirkorlik turi, xususan, pulli ta'lim xizmati va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Inson kapitalga yunaltirilayotgan investitsiya va kullanmalarni usishi hozirgi zamon demokratik tarakkiyot modernizatsiya va yangilash borasida berilayotgan maksadlarga erishishda eng muxim kadriyat va xal kiluvchi kuch bulgan bilimli va intellektual rivojlangan avlshodni tarbiyalash vazifasini doimo uzini asosiy yunalishlar katoriga kuyadigan davlatgina uzini namoyon eta olish mumkin. Uzbekistonda axolining kariyb 35 foizini 16 yoshgacha bulgan bolalar ,60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bulgan yoshlarni tashkil etishini xisobga oladigan bulsak, bu isloxotlarning roli va axamiyati uz uzidan tushunarli va ravshan buladi.

1.3. OLIY TA'LIM TIZIMIDA BYUDJET

Davlat ta'lim muassasasi byudjet tashkilotidir. Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishtirishni amapga oshirish uchun tashkil etiladi. Unda notijorat tavsifidagi ijtimoiy-madaniy funktsiya bajariladi, davlat byudjetidan tulik yoki kisman shuningdek, byudjetdan tashkari mablag hisobidan moliyalashtiriladi.

Ta'lim muassasasini byudjetdan mablag bilan ta'minlash Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining karori bilan gartib- ga solinadi. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414- sonli «Byudjet tashkilotlariiii moliyalashtirishni takomillashti- rish tugrisida»gi tsarori ta'lim muassasalarini moliyalashtirish jarasnini tartibga soluvchi asosiy kopun hujjatlaridan biri bulib ,hisoblanadi. Talabalar kabul kilish granti, moddiy-texnika bazasining hajmi ta'lim muassasasiga byudjetdan mablag ajratish uchun asos buladi. SHunga kura Uzbekistan Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi har oyda ta'lim muassasasiga zarur byudjet mablagini ajragadi

Ta'lim muassasasining byudjet tizimi kuyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

- ichki moliya tizimining metodik birligi;
- daromad va xarajatlar hisob-kitobiniig tulakonligi;
- oshkoralik;
- byudjet vakolagning raqbariyat darajalari buyicha taksimlanishi.

Ta'lim muassasasining byudjsgi tugrisidagi me'yoriy hujjatda uning shakllanishi tamoyili, daromadni belgilash va xarajatlarni tasdiklash tartibi, shuningdek, byudjet intizomiga rioya kilish, ta'lim muassasasi faoliyati byudjet koidalari buzilganlik uchun javobgarlikka tortish shartlari belgilab kuyiladi.

Byudjet mablaglaridan foydalanish va byudjet intizomini mustahkamlash «Ta'lim tugrisida»gi konun, boshka konunchilik hujjatlari, Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Maqkamasinin! karorlari, Moliya vazirligi yuriknomalari, Oliy ta'lim tugrisidagi nizom, ta'lim muassasasining nizomi va boshka ta'lim muassasasi ichky moliya okimlarini tashkil etish, xarajat me'yorlari va rahbariyat xukuklariga taallukli ayrim muammolarni tartibga oluvchi koidalarga asosan amalga oshiriladi.

Byudjet — ta'lim muassasasi ichki k°idalari bilan mustahkamlangan, ta'lim muassasasi pul mablaglarining xos il bulishi va sarf bulishi shakli. Xozirgi kunda Uzbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari barcha byudjetdan mablag oluvchi tashkilotlar kabi smeta asosida moliyalashtiriladi. Mazkur kullanma jahon amaliyogidagi ilg'or tajribalarga asoslangan xolda «ta'lim muassasasi byudjeti» tushunchasi ishlatilgan, mazkur tushuncha bugungi kunda mamlakatimizdagi «oliy ta'lim muassasasi smetasi» tushunchasiga mos keladi.

Byudjet ta'lim muassasasi uchun yaxlit, yuridik shaxe mak,omi berilgan ayrim bulinma uchun bulishi mumkin.

Byudjet tizimining uch boskichi farkdanadi:

-umumta'lim muassasasi;

-ayrim bulinma;

-ayrim ish, ayrim tadbir, ayrim ob'ekt.

Ta'lim muassasasini moliyalashtirish uchun mablag davlat tuzilmalaridan (davlat byudjetidan), ta'limning kontrakt tulov shartnoma shaklidan, tovarlar ishlab chikarish va sotishdai (ish, xizmatdan), korxon va xususiy shaxslardagi (byudjetdan tashkari) mablagdan kelishi mumkin.

Byudjet tasnifi daromad va xarajat moddalariiii guruxdan davlat tizimi buyicha amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi byudjet tizimi xukuk negizining yagonaligi, tasniflashning ngona sistemasidan foydalanishi, kujjatlarning yagona xisobotlar va rejalar shakli xamda zaruriy statistik xisobot takdim etishi bilan ta'minlanadi.

Ta'lim muassasasi daromadlari — ma'muriyat yoki ayrim bulinma raxbari tasarrufiga kelib tushadigan pul mablagi. Ta'lim muassasasi xarajatlari — ta'lim muassasasi bulinmalarining extiyojlarini kondirishga sarflanadigan pul mablagi.

Xarajatning daromaddan oshib ketishi ta'lim muassasasi byudjet takchilligini keltirib chikaradi, u keyyngi xisobot yili byudjetiga utadi va keyingi davrda kaR3 bulib koladi.

Daromadning xarajatdan oshishi ta'lim muassasasining foydasini tashkil etadi. Ta'lim muassasasining foydasi olib kuyilishi mumkin emas.

Byudjet mablagidan maksadli foydalanmaslik bu mablagni olish shartlari yoki ta'lim muassasasi ichki byudjet tuzilishi k°idalari- ga muvofik bulmagan maksadlari kaRatilish xisoblanadi.

Davlat grantiga muvofik ajratilgan mablag xarajatlar aloxida guruxi buyicha cheklanadi. Mablagni byudjet mablagi va byudjetdan tashkari mablagga taksimlashga yul kuyilmaydi Bu stipendiya fondiga, ish xaki, ta'lim muassasasini rivojlantirish kapital kuyil- malari va joriy xarajatlarga taallukdidir.

Ta'lim muassasasi tadbirkorlik va ishlab chikarish faoliyatidan va ITIdan olgan (ta'limning tulov-kontrakt shaklidan keladigan mablag bundan istisno) mablamari ta'lim muassasasi xarajat mod- dalari buyicha mustakil tarzda buyurtmachi va ta'lim muassasasi uzaro kelishuvi asosida taksimlanadi.

Tovarlari ishlab chikarish (ish bajarish, xizmat kursatish) dan ta'lim muassasasi oladigan mablaglar belgilangan topshirikka muvofik va binoning jixozlarni ijaraga berish, ta'lim muassasasida tashkil etilgan tijorat korxonasi foydasidan ajratmalardan olingan 50% mablag ta'lim muassasasining uz ixtiyoriga kura foydalaniladi.

Korxonalar va muassasalar, shuningdek jismoniy shaxslar ta'lim muassasasiga jixozlar va materiallar. bino va inshootlarni, transport va texnika vositalarini. moliya resurslarini begaraz berishi mumkin. Ta'lim muassasasi bu tur mablag va vositalarni mustakil tasarruf etadi.

Ta'lim muassasasi operativ boshkarish shargi bilan yer maydoni, binolar, jixozlar va boshka Uziga davlat byudjetidan ajratilgan moddiy resurslardan, shuningdek, korxonalar va fukarolardan olingan yoki boshka manbalar xisobidan sotib olinganlardan foydalanadi.

Ta'lim muassasasi olgan mablagi xisobidan uziga zarur jix,oz- larni istalgan korxonalar yoki xususiy shaxedan sotib olishi, ijaraga olishi xamda buyurtma kilishi mumkin, ularga nakd pulsiz xak tu- laydi.

Xujalik shartnomasi asosidagi ilmiy-tadkikot ishlaridan ilmiy faoliyatni amalga oshirish uchun olingan byudjetdan tashkari mablagdan foydalanish tartibini ta'lim muassasasi mustakil bel- gilaydi, xodimlar mexnatiga xak tulash va ularni moddiy

ragbatlan- tirishga yunaltiladigan ulushlarni aniklaydi, shu bilan birga foyda ta'lim jarayonini rivojlantirishga, jumladan turli ilmiy- texnikaviy va ijtimoiy rivojlantirish, moddiy ragbatlantirish va boshka jamgarmalar tuzish orkali investitsiya kilinishi mumkin.

Byudjet xisobi va byudjetdan tashkari mablaglar xisobi Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat taftish bosh boshkarmasi tomonidan nazorat kilinadi va belgilangan k°idalar bu mablaglardan maksadli bulmagan extiyojlar uchun foydalanishni ta' - kiklaydi.

Rektor kundalik faoliyatda byudjet mablagini taksimlovchi xisoblanadi, shuningdek, taksimlash xukukiga ega raxbarlar xam bulinmalar yoki yunalishlar buyicha xarajatlarni taksimlay oladi. Ta'lim muassasasi bank xujjatlariga imzo kuyish xukukiga ega mansabdor shaxslar, tarkibiy bulinmalarning tula moliyaviy mus- takillikka ega raxbarlari shunday shaxslar xisoblanadi.

Ta'lim muassasasining byudjeti kuyidagilar xisobiga xosil buladi:

- Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining k,arori bilan tasdiklangan davlat fanti buyicha kabul kvotasiga muvofik mu- taxassislar tayyorlovi uchun beriladigan davlat mablagi;
- malaka oshirishni moliyalashtirish;
- maksadli ta'lim dasturlarini moliyalashtirish;
- Tulov-shartnoma shakldagi ta'lim va ikkinchi oliy ma'lumot olishi uchun tulanadigan hak;
- korxonalar uchun kushimcha kursatilgan ta'lim xizmati uchun ke- ladigan mablag;
- ayrim fuk,arolarga kushimcha ta'lim xizmati kursatish iui ular- ni ukitish uchun olinadigan qak;
- ta'lim muassasasi maydonlari va resurslarini ijaraga berish;
- mulkning barcha shaklidagi korxonalar va tashkilotlar, jismoniy shaxslarning homiylik mablapshri;
- ta'limiy tavsifga ega bulmagan ilmiy, konsultatsiya va boshka xizmatlarga tulovlar;
- nomoddiy aktivlarni sotish;

- boshka tashkilotlar faoliyatida katnashishdan keladigan daromad;
- madaniy-ommaviy gadbirlar utkazishdai keladigan daromad;
- uzga tashkilotlarning begaraz yordami va boshkalar.

Ta'lim muassasalari oladigan kushimcha daromad yoki rejadan tashkari tushumlar, birinchi galda, ular KUshimcha daromaddan moliyalashtirish lozim bulgan xarajatlarga yunaltiriladi, ikkinchidan, joriy karzlarni koplashga, uchinchidan, kuzda tutilmagan ishlarga, nihoyat, kreditorlik karzlarni koplashga sarflanadi. KUshimcha mablaglar sarflanadigan ustuvor yunalish va tadbirlar Kengash karori yoki ta'lim muassasasining rektori tomonidan belgilanadi. Bu ustuvorlik ta'tim muassasasining navbatdagi yillik loyihasi- ni tayyorlashda kabul kilinadi.

Agar avval rejalashtirilmagan yangi xarajatlar kilish zarurati paydo bulsa, ularni moliyalashtirish ta'lim muassasasi buyicha buy- rukda, ularni moliyalashtirish tartibi kursatilgan holda belgilanadi. Rejada belgilangandan kura kagta xarajatni moliyalashtirish zarurati tugilganda. ta'lim muassasasi buyicha buyrukka asosan moliyaviy tekshiruv belgilanadi, uning natijasi buyicha karor kabul Kilinadi.

Buxgalteriya xizmati yangi yil byudjet xarajatlari ruyxatida kayd etilmagan xarajatlarni moliyalashtirish uchun kabul kilish xukukiga ega emas.

Moliyaviy mablaglar ta'lim muassasasi davlat idoralaridan olgan, boshka yuridik shaxslarga berilishi mumkin emas, chunki ular maksadli kisoblanadi. Bu shartga amal kilish ustidan nazoratni Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat taftish bosh boshkarmasi amalga oshiradi. Ta'lim muassasasi uz tadbirkorlik faoliyatidan kelgan daromadni uz xohishiga kura tasarruf etadi.

- mehnatga hak tulash, shu jumladan:
 - xodimlar asosiy maoshi;
 - ish kakiga ustamalar;
 - mshnatga kushimcha kak tulash;
 - lavozimdan tashkari xodimlar mehnatiga kak tulash;
 - xodimlarga boshka pul tulovlari;
- ish haki uchun ajratmalar, shu jumladan:
 - pensiya fondiga ajratmalar;

- bandlikka kumaklashish fondiga ajratmalar;
- kasaba uyushmalar kengashi fondiga ajratmalar;
- xodimlarga davlat majburiy sugurtasiga ajratmalar;
- ta'minot va xarajat materiallari sotib olish, shu jumladan:
 - devon ashyolari;
 - yumshok jihozlar;
 - boshka xarajat materiallari;
 - xizmat safari va daromadlari;
 - transport xizmati tulovlari;
 - aloka xizmat tulovlari;
 - kommunal xizmat tulovlari;
 - boshka xizmatlarga tulovlar, shu jumladan:
 - bino va xonalarni joriy ga'mirlash;
 - boshka xujalik va ekspluatatsiya xarajatlari.
 - ukuv-metodik xarajatlari, shu jumladan:
 - ishlab chikarish amaliyoti xarajatlari;
 - ukituvchilar malakasini oshirish kurslari;
 - kutubxona jamgarmasini tuldirish xarajatlari;
 - uskuna va jihozlarni ta'mirlash xarajatlari;
 - akoliga transfertlar, shu jumladan:
 - nafaka tulash;
 - stipendiya;
 - axoli boshka transfertlari.

Tashkilotning kapital xarajatlari jikozlar olish, kapital Kurilish va kapital ta'mirlashdan hosil buladi. Kuyidagilar kis- mlarga ajratilgan kapital xarajat elementlari hisoblanadi:

jikozlar sotib olish, shu jumladan:

- ilmiy-ukuv adabiyotlari sotib olish;
- auditoriya uchun va boshka jix,ozlar sotib olish;
- kapital kurilish, shu jumladan:

-turar joy kurilishi;
-ishlab chikarish ob'ektlari kurish;
-ijtimoiy-madaniy va maishiy ob'ektlar kurish;
ma'muriy ob'ektlar kurish,
kapital tamirlash, shu jumladan:
turar joy fondini; ukuv-laboratoriya ob'ektlarini;
ma'muriyob'ektlarni.

Moliyaviy aloqalar kreditlar va ular buyicha tulovlarda xisobga olinadi. Bu soxa faoliyatini aks ettiruvchi xarajatlar elementa kuyidagilarni uz -ichiga oladi:

-kreditlar berish; -kreditlarni kaytarish.

Moliyaviy ta'minlanishda ta'lim muassasasi Uzbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta'lim vazirligi bilan moliyalashtirishning bir necha variantini tuzishi mumkin.

Birinchi variant buyicha ta'lim muassasasiga limitlar (xarajatlar chegaraviy miqdori) — mablaglar elementlar buyicha yoxud elementlar guruxi buyicha davlat buyurtmasi berish bilan bir vaktida beriladi.

Ikkinchi variant buyicha byudjet moddalari buyicha bir talabaga xisoban ta'lim muassasasiga uzok muddatli ajratmalar me'yori belgilanadi. Joriy vaktida davlat buyurtmasidagi talabalar soni uzgar- ganda moliyalashtirish miqdori xam uzgaradi,

Uchinchi variant buyicha moliyalashtirishda ta'lim muassasasini Kisman ta'minlash kuzda tutiladi. U ayrim xarajatlar moddasini yoki barcha elementlar buyicha xarajatlar ayrim ulushini davlat mablagidan tulov sifatida amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatini moliyalashtirishning bu variantida ta'lim muassasasi xarajatlarning bir kismi ongli ravishda byudjetdan tashkari manbaga koldiriladi. Mamlakat byudjetida mablag yetishmaganda moliyalashtirishning bu varianta yagona kullanadigan bulib koladi. Moliyaviy jixatdan eng tang vaziyatlarda Uzbekiston Respublikasi oliy va urta maxsus ga'lim vazirligi birinchi navbatdagi byudjet moddalarini moliyalashtirishgiradi: ish xaki, ish xakiga ajratmalar, talabalar stilendiyasi, shuningdek, ta'lim muassasasi ish faoliyatini kullab-kuvvatlash.

2-BOB. Oliy ta'lim muassasalarini boshkarishni rivojlantirish omillari.

2.1. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshkarish va uning taxlili.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida oliy ta'lim muassasasi resurslarini boshqarish - murakkab vazifa. U oliy ta'lim muassasasi aktivlari ko'rsatkichlari va baxolash tamoyillarini ishlab chiqishni, ularni inventarizatsiyalash, moddiy-texnika negizini aniq tasavvur etish, oliy o'quv yurt resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishni talab etadi. Faqat, davlat tashqi soliq siyosatini hisobga olib byudjetdan tashqari faoliyat yo'nalishlari va turlari majmuini boshqarib hamda ular bo'yicha oliy ta'lim muassasasining cheklangan resurslarini samarali taqsimlab, shuningdek rag'batlantiruvchi ish xajmini va markazlashtirilgan fondga qayta investitsiyalash ichki to'lovlar miqdorini belgilab, oliy ta'lim muassasasi o'zi tanlagan strategik rivojlanishiga muvofiq eng yuqori daromadga ega bo'ladi.

Bu xol ta'lim darajasini oshiradi deb faraz qilinadi, chunki talabalar universitetlarga ancha yuqori talablar qo'yadi, oliy ta'lim muassasalari esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga katta e'tiborni qaratadi. Vaxolanki talabalar oliy ta'lim tizimida va keyinchalik o'z ish xaqlari oshishini kutishlari mumkin, bugun dunyoda ular ta'lim harajatlarini moliyalash adolatli va oqilona deb hisoblaydi. O'rtacha olganda mehnatning ancha yuqori samaradorligini va umuman aholi daromadi ancha yuqori bo'lishini ta'minlovchi mehnat resurslari ta'lim harajatlari bir qismini xukumat moliyalashi foydasiga ishonchli dalildir. Amaldagi baxslar xukumat va talabalar (ular ota-onalari)ning adolatli nisbati xususida boradi. Ko'pincha sharb mamlakatlarida bu nisbatdagi ulush hozirgi vaqtda talabalar hisobidan moliyalashni oshirish, xukumat hisobidan kamaytirish tomon o'zgarmoqda. SHunday qilib talabalarni yangi tartibda byudjetdan moliyalash xolati yuzaga kelmoqda, bu o'z navbatida ta'lim harajatlarini tobora katta qismini byudjetdan qoplashga olib keladi.

1- jadval

Buyuk Britaniya, AQSH va Frantsiya universitetlarida ta'lim daromadlari manbaining tuzilishi⁶ (%da)

№	Манба	Буюк Британия	АҚШ	Франция
1	Давлат харажатлари жами	85,5	51,1	99,0
	Шу жумладан			
	Марказлаштирилган лавозим харажатлари	84,0	16,5	96,2
	Маҳаллий	-	30,6	-
		1,5	4,0	2,8
2	Хусусий компаниялар ва хайрия ташкилотларининг харажатлари	2,5	6,9	
3	Ўқувчилар ва улар оиласининг харажатлари	8,0	20,3	1,0
4	ОТМларнинг ўз харажатлари	-	11,4	-
5	Бошқа манбалар	4,0	10,4	-

Ba'zi mamlakatlarda talabalarga kredit berish tizimi rivojlanmoqda. Talabalar uchun moliyalash vaziyatining keskinlashuvi oxir oqibatda, ular o'z ta'lim olishlari uchun sarflarning bir qismini o'z ish xaqlarisobidan qoplashga intilmoqdalar. Bu o'z navbatida ta'lim muddati oshishiga va ta'limning ancha moslashuvchan modeliga talabni o'sishiga ta'sir etmoqda. Biroq talabalardan olinadigan xaq ta'lim harajatlarning, xatto, AqSHda, davlat oliy ta'lim muassasalarida, 20%ni qoplamoqda (xususiylarda-33%). Harajatlarning qolgan qismi boshqa davlat va xususiy manbalardan qoplanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda oliy ta'lim muassasasini davlat moliyalashdagi byudjet taqchilligi yildan yilga saqlanib kelmoqda. SHuning uchun oliy ta'lim muassasalariga moliyalashning qo'shimcha manbalarini izlab topish huquqi berilmoqda va bunda ularga har tomonlama yordam ko'rsatilmoqda.

Tijorat faoliyati turli shakllarda amalga oshirilmoqda:

- universitet maydonlari va jihozlaridan konferentsiya va boshqa jamoatchilik tadbirlari o'tkazishda foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalariga qarashli yerlarga, oliy ta'lim muassasalaridan yoki ularga xizmat ko'rsatishda foydalanuvchi firmalar tuzish;

⁶ WWW. gogl o'z sayti

- oliy ta'lim muassasa mutaxassislarini tijorat kompaniyalariga konsultatsiyalar o'tishi;
- aholiga qo'shimcha ta'lim xizmat ko'rsatish;
- buyurtma ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqalarni bajarish.

Buxgalteriya va soliq hisobotlari qonuniyligini ta'minlash uchun, oliy ta'lim muassasalariga tegishli tijorat firmalarida shunday ish olib borilmoqda va olingan foyda oliy ta'lim muassasasi tasarrufiga tushmoqda. Universitetlarga daromad keltiruvchi samarali tizim barpo qilish yo'lida amaliy murakkabliklar yuzaga kelmoqda, masalan, oliy ta'lim muassasalari va firmalar o'rtasidagi daromadni taqsimlash. Ma'lumki, agar universitet barcha daromadni olib qo'ysa, bunday dargoxda xech kim firma ochmaydi. Tijorat faoliyatidan kelgan daromad qayta investitsiyalansa, soliq imtiyozlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bino, laboratoriya, kutubxona, kompyuter markazlari va professorlar qo'shimcha lavozimini jalb etmay oliy ta'lim muassasasiga talabalar qabul qilish maqdorini oshirish oliy ta'lim muassasasi samarasini oshirishning eng oson yo'li. Bunday usuldan 70-80-yillarda Germaniya va Buyuk Britaniyada keng foydalaniladi. Bu o'zini oqlagan bo'ladi, qachonki, safarbar etilgan oliy ta'lim muassasasi xodimlari tomonidan qo'llab-quvvatlansa. Biroq ko'pchilik universitetlarda o'qituvchi-professor tarkibi ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashadi, ular ko'pgina tadqiqot institutlarida band, shu tufayli mazkur usul o'z imkonini tugatadi. Ob'ektiv sabablarga ko'ra universitet boshqa vazifasini cheklamay turib, o'qituvchilar yuklamasini oshirish mumkin emas; talabalar soni faqat qo'shimcha resurslar hisobiga oshirilishi mumkin. Mana shuning uchun masalan, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda 60-yillarda ta'lim tizimi juda qimmat usul-mutlaqo yangi institut (universitet)lar bunyod etish yo'li bilan kengaytirilgan.

Ancha keyinroq e'tibor mutaxassislarni quyidagicha usulda tayyorlashni ko'paytirishga qaratiladi:

- kurslar muddatini qisqartirish;
- yozda o'qitishni ham qo'shganda akademik yilni cho'zish;
- kechki o'quv shaklidan keng foydalanish;

- katta guruxlardagi talabalarga ma'ruza o'qish (etarli xajmdagi joysiz bu mumkin emas) va bunga qo'shimchasi sifatida kompyuterlarda o'qitishdan foydalanish, bu ko'p miqdordagi o'qituvchilarni talab etmaydi;

- sirtqi ta'lim shaklidan keng foydalanish.

Bu tadbirlarning ko'pchiligi xali ko'rib chiqish yoki joriy etish arafasida, lekin ularga xizmat ko'rsatish omilining mavjudligi sharbda rasmiy fikrning rivojlanish yo'nalishini ko'rsatadi. SHubxa yo'qki, mavjud yondashishlar ba'zilaridan boshqa davlatlar yaqin kelajakda foydalanadilar.

SHunisi yaqqol ayonki, yetarli resurslarsiz samaradorlikni oshirish uchun tazyiq o'tkazish, shunga olib kelishi mumkin, oqibatda ham ta'lim sifati, ham tadqiqotchilik faoliyati oliy ta'lim muassasalarida juda pasayib ketadi. Mana shuning uchun samaradorlik jadal sur'atlar bilan rivojlangan mamlakatlarda vaqti-vaqti bilan ta'lim va ilmiy jarayonning sifatini baholab berishga harakat qilinadi.

Masalan, Buyuk Britaniyada, shunday baholash natijasida faqat oliy ta'lim muassasalariga o'z faoliyatini qanday yaxshilash to'g'risida tavsiyalar berilibgina qolmay, balki byudjetda ham ayrim o'zgarishlar qilinadi. Xususan, bu mamlakatda muntazam ravishda barcha oliy ta'lim muassasalarni reyting baholash o'tkaziladi va bu toifadagi universitetlar guruxini milliy tenglashtirish jadvali nashr etiladi. YUqori reytingli yoki ta'lim sifati uchun yuqori bal olgan oliy ta'lim muassasasi qo'shimcha mablag' oladi.

YAponiya tajribasiga nazar tashlaylik. Bunda byudjet mablag'ni qattiq tejalishiga ko'zimiz tushadi. Ta'lim tizimi mamlakat byudjeti majmui uchun nisbatan arzon tushadi: yapon xukumati yalpi milliy maxsulotning 5,5-6,0%ni ta'limga sarflaydi, bu raqam AqSHda 7,1%ni, Buyuk Britaniyada 7,7%ni tashkil etadi. SHunga qaramay yapon o'quvchilari va talabalari ko'p ko'rsatkichlar bo'yicha (ta'lim olishga taalluqli) boshqa mamlakatlardagi o'z tengdoshlaridan ustunlik qiladilar. YAponiya ta'lim tizimining asosiy afzalligi iqtisodga-institutsional o'ziga xoslikka bog'liq. Davlat va xususiy shu'ba nisbati va ta'lim muassasalarini moliyalash o'ziga xos tarzda. Davlatga aloqadorsiz shu'baning ahamiyati boshlang'ich ta'limdan oliysiga tomon oshib boradi.

Yaponiyadagi oliy ta'lim elitar bo'lib, barcha xoxlovchilar ham o'qiy olmaydi. U ham davlat, ham xususiy oliy ta'lim muassasalariga tayanadi. Yapon xukumati ta'limni oliy maktab tizimiga qoldirgan: davlat universitetlari asosan tabiiy fanlar, injenerlik fanlari asosida mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanadi; davlatga aloqadorsiz universitetlar, odatda, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy ixtisosliklar bo'yicha mutaxassis tayyorlaydi. Davlat ko'proq mablag' talab etadigan ixtisoslik olishni ta'minlaydi (Ma'lumki, zamonaviy muxandis tayyorlash, aytaylik yurist yoki buxgalter tayyorlashdan qimmatga tushadi). SHunday qilib, ta'lim tizimi o'zini ta'lim sohasidagi bozorning imkonsizligidan muxofaza qiladi. Xususiy ta'lim muassasalari ko'p mablag' talab etuvchi nazariy fanlar bilan bog'liq ixtisoslikka ega bo'lishga sharoit yaratmasligi mumkin, bunga boshlang'ich sarflarning to'ldirilmasligi xolati sabab bo'lishi mumkin.

Davlat ta'lim standartlarini davlatga aloqadorsiz shu'ba sarfi minimal darajada bo'ladigan qilib belgilandi. Bu ta'limga to'lanadigan xaqning pasayishiga, davlatga aloqadorsiz ta'limga talab oshishiga, buning oqibatida davlatga aloqadormas universitetlar ko'payishiga olib keladi. Bunga dotatsiya siyosati ham ko'mak beradi, shuningdek qimmat tushmaydigan ixtisoslikda o'qitishga litsenziya berish siyosati, o'qituvchilar malakasiga qo'yiladigan talabning yuqori emasligi ham yordam beradi, bular hammasi oqibatda ish xaqini tejash, bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar miqdori oshishiga imkon beradi.

SHuni ta'kidlash kerakki, o'z muvaffaqiyati uchun yapon ta'lim tizimi sezilarli darajada ham xukumat boshqaruv tizimidagi, ham davlatga qarashli bo'lgan va bo'lmagan ta'lim muassasalarida menejment madaniyati yuqoriligidan minnatdor bo'lsa arziydi.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash manbalari (davlat va xususii manbalar) qaytib konsortsium, oliy ta'limni tadbiq etuvchilar va YUNESKOning oliy ta'lim bo'yicha yevropa markazi (SEPES) fikrini kiritish o'rinlidir. Ular aralash moliyalash sof davlat yoki sof xususiy moliyalashdan afzaldir, bunda aralash moliyalash ham davlat, ham xususiy ta'lim muassasalari uchun ma'qul

keladi degan fikrga keldilar. AqSHdagi oliy ta'lim muassasalarni moliyalash tizimi bu borada ancha e'tiborga molikdir.

Tarixdan shunday bo'ldiki, birinchi amerika kollejlari xususiy korporatsiyalar edi, ular o'z siyosati o'z standartlari va tartib-qoidalarini davlatdan xoli tarzda ishlab chiqqanlar. Lekin urushdan keyingi davrda davlat oliy ta'lim muassasalarida talabalar soni ko'paydi. Agar 1950 y. barcha talabaning 49%i xususiy kollej va universitetlarda ta'lim olgan bo'lsa, keyin davlat maxalliy kollejlarning tarmog'i kengaygach, nisbatan o'zgardi: davlat oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar xissasi 78%dan oshdi.

Oliy ma'lumot olganlik haqida diplom beruvchi AQSHning 3500 oliy ta'lim muassasasi yarmidan ko'pi xususiy korporatsiya. Bular bo'yicha mas'uliyat mashxur sobiq bitiruvchilar va boshqa xususiy shaxslardan iborat murabbiylar zimmasiga yuklangan, ular filantropik yordam ko'rsatadilar. AQSHdagi ko'pgina mashxur universitetlar - Garvard, Stenford, Yels, CHikago universitetlari va ko'pgina nufuzli kollejlari-Anxerst, Uilyame, CHARlston kollejlari xususiy shu'baga qarashli bo'lib, sezilarli darajada xayriyalarni oladilar va yuqori mavqega egadir. Bu xol ularga ta'lim uchun yuqori xaq olish va yig'implarga (90-yillar boshida 20 ming dollardan yuqori) ega bo'lish imkonini beradi.

Keyingi o'n yillikda AQSHda xususiy oliy ta'lim muassasalarining soni davlatnikiga qaraganda ancha tez o'sdi, lekin unda taxsil oluvchi talabalar soni, birinchi galda, xaq to'lash yuqoriligi va shunday diplomni davlat ta'lim muassasasida olish mumkinligi tufayli muntazam qisqarmoqda. Bundan tashqari AqSH xususiy oliy ta'lim muassasalari o'z xajmiga ko'ra davlatga qarashlilarnikidan ancha kichik Amerika oliy ta'lim muassasalarini moliyalash besh manbadan amalga oshiriladi:

- federal byudjet, shtatlar byudjeta va maxalliy xukumat byudjetidan ajratilgan mablag'lar;
- talabalarining ta'lim va xizmat uchun to'lovlari;
- oliy ta'lim muassasasining o'z faoliyatidan kelgan daromadlar;
- filantropik tashkilotlar va xususiy shaxslar xayriyalari;

- xususiy tashkilotlar va shaxslar tuzgan maxsus fondlardagi jamg'armalardan foizlar.

Oliy ta'limga davlat yordami o'rtacha 40-45%ni (oliy ta'lim muassasasi umumiy daromadida) tashkil etadi va quyidagicha taqsimlanadi; federal xukumat byudjetidan-10-15%, shtatlar byudjetidan-20-30% va xokimiyat maxalliy byudjetidan-2-5%. Federal yordam, amerikalik muttaxassislar xulosasiga ko'ra, aslida fonda tufayli emas, balki zarurat tufayli shakllangan va hozirgi miqdoriga yetgan, chunki bevosita ta'lim milliy manfaatlarga xizmat qiladi, milliy qadriyatning muhim unsuri hisoblanadi. Oliy ta'lim davlat yoki xususiy shubasining ko'p yoki kam samaradorligi xususida bir xil ma'lumot yoki da'volarning o'zi uchramaydi. Xususiy ta'lim muassasalari ko'p mamlakatlarda ham nisbatan davlat ta'lim tizimi ustun mamlakatlar natijasiga o'xshash natija ko'rsatadilar, xususiy ta'limning ancha keng tarqalgan na iqtisodda, na ta'lim sohasida ancha qanoatlanarlik natijasiga olib kelmaydi. Ta'limning ijobiy natijalari, odatda, tashkil etish omiliga bog'liq. Muammo xususiy shubani davlatning oliy ta'lim boshqarish tizimiga joriy etish dinamikasiga va o'z demokratik tavsifini yo'qotmasligiga erisha olishidadir.

SHunday qilib, mumtoz universitetlar rivoji umumjahon yo'nalishi so'nggi o'n yilliklarda ta'lim iqtisodida, quyidagi umumiy yo'nalishni ta'kidlashga imkon beradi;

1. yevropa ko'pchilik mamlakatlarida keyingi qator yillarda oliy ta'limni moliyalashda, nisbatan, ba'zi bir joylarda mutloq pasayish yuz berdi. Bu yevropa va SHimoliy Amerika mamlakatlaridagi ba'zi umumiy iqtisodiy pasayish bilan bog'liq. Jaxonning yirik universitetlari faqat ijtimoiy sohada emas, balki o'z professorlarini xizmat safariga yuborish, chetdan taklif etishda ham tejamkorlik qilmoqdalar. Masalan, Germaniyaning faxri bo'lmish Geydelberg universiteti barcha o'quv-ilmiy laboratoriyalarida har bir laboratoriya universitetga qancha mablag' keltirishini muntazam tahlil etib boradi, o'zini oqlamagan labaratoriyalar yopiladi.

2. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta'lim muassasalari davlat moliyalaydigan o'quv-ilmiy va madaniy markazdan, tobora, korxonaga xos xususiyatlarga ega bozor iqtisodiyotining iqtisodiy subektiga aylaimoqda; tarkibiy bo'linmalar samaradorligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash o'tkazilmoqda. Ta'limning turli shakllari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tarmog'i tadqiq etilmoqda, ta'lim uchun tabaqalashgan xaq to'lash usuli ko'rib chiqilmoqda.

3. Keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalari taklif etayotgan ta'lim xizmati keskin oshadi, shu jumladan oliy ta'lim muassasasini tugatgandan keyingi ta'lim doirasida. Bu jarayonni yuqori malakali mutaxassislarga talabi oshgan davlat ham, o'z xodimlari malakasini oshirishdan mafaatdor davlatga aloqadorsiz shu'ba ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalar, shu jumladan iqtisodiyolari ham, qo'shimcha ta'lim xizmati ko'rsatishdan manfaatdordirlar. AqSHda, masalan, diplom olgandan keyingi va qo'shimcha ta'lim xizmati ko'rsatishdan bakalavriatdagi ta'limdagidan ko'ra ko'proq mablag'ga ega bo'linadi.

4. Oliy ta'lim muassasasining, o'zlari davlat moliyalashiga kamroq muxtoj bo'layotganlari, ko'proq xususiy ishlari evaziga mablag' topishlari tufayli muxtor bo'lishga intilishlari davlat tomonidan oshib borayotgan nazorat bilan muvozanatlanmoqda. Oliy ta'lim muassasasi faoliyati ustidan muntazam nazorat tartibi barpo etilmoqda. AqSHda, masalan, turli akkreditatsiya agentliklarining (kasbiy yoki xududiy), ishi rag'batlantirilmoqda. Frantsiyada ta'limni baholash bo'yicha maxsus milliy qo'mita tuzildi.

2.2.Oliy ta'limni moliyalashda byudjet va nobyudjet resurslarni samaradorligi

Byudjetdan moliyalash umumdavlat resurslarini jalb etish xisobiga oliy ta'lim muassasalar rivoji imkoniyatlarini tartibga soladi va bu bilan uning sifat hamda miqdor ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Byudjetdagi mablag' xisobidan oliy maktabni moliyalashni to'liq amalga oshirish imkoni yo'qligidan davlat oliy ta'lim muassasasi byudjetdan tashqari faoliyatiga soliq imtiyozi belgilaydi va mazkur faoliyatni rag'batlantiradi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra belgilangan soliq imtiyozi bir necha yo'nalishga ega:

- oliy ta'lim muassasalari, byudjetdagi tashkilot sifatida, bir qator to'lovlardan, ularning byudjetdan tashqari faoliyatidan qat'iy nazar, to'lovlar (er uchun to'lov, mulk solig'i va x.k.)dan ozod qilish;
- davlatning o'zi uchun ham, OTM uchun ham muayyan muhim faoliyat yo'nalishlariga davlat soliq imtiyozini belgilash (pulli ta'lim xizmati, ta'lim soxasidagi o'quv-tarbiya jarayoni bilan bog'liq xizmatlar, xo'jalik shartnomasi asosidagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik va x. k);
- byudjetdan tashqari faoliyatdan keladigan foydani sarflash yo'nalishlari bilan soliq imtiyozlarni belgilash (OTMga qayta investitsiyalash sharti bilan byudjetdan tashqari faoliyatning bir necha turidan olinadigan foyda soliqdan ozod etilishi).

Qonun, ayniqsa, davlat mulkini ijaraga berishdan kelgan daromaddan foydalanishni qattiq nazorat qiladi, bu daromadlar to'lig'icha OTMning rivojini ta'minlash hamda o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilishini majburiy qilib qo'yadi. OTM ma'muriyatining byudjetdan tashqari faoliyatni tashkil etishdagi vazifasi soliq imtiyozi bo'yicha yo'nalishlarni va faoliyat turini hamda OTM cheklangan resurslari (mehnat, moddiy, moliyaviy va b.)ni qayta taqsimlashdan, shuningdek ta'lim va fan soxasidagi OTM strategik rejadan kelib chiqib foydani qayta investitsiyalashdan iboratdir.

Resurslarga talab tuzilmasi byudjetdan tashqari faoliyat asosiy yo'nalishlari quyidagilardan dalolat beradi:

1. Pullik ta'lim xizmati avvalo mehnat resurslari-yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni, moddiy resurslar-o'quv maydoni va jihozlarni talab etadi. Boshlang'ich davrda moliyaviy resurslar bo'lishi shart emas, chunki, ta'lim xizmatiga oldindan xaq to'lanadi. Boshqa xolat-tegishli ta'lim faoliyatiga litsenziya zarurligi muhim, ya'ni moddiy mas'uliyatlar, ta'lim faoliyatiga mutloq huquq shaklida OTMga (uning xodimlariga emas) taalluqli bo'lib, bu OTMga tegishli qo'shimcha daromad keltiradi.

2. Ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati OTMda yuqori malakali ilmiy xodimlar, ishlab chiqarish maydoni va uskunalari, aylanma moliyaviy mablag' bo'lishini talab etadi, chunki buyurtmachilar tayyor maxsulotga xaq to'laydi. SHuni ta'kidlash joizki, byudjetdan tashqari faoliyat, qoidaga ko'ra, OTMga sezilarli daromad keltirmaydi, chunki mutanosib tarzda daromad taqsimlanadigan bozor va resurslar tuzilmasidagi kuchli raqobat bunga to'sqinlik qiladi (mehnat resurslarining narxi yuqori, boshqa ITIga bevosita sarflar ham ko'p), biroq OTM uchun u asosiy faoliyatni saqlash uchun muhim.

3. Tijorat faoliyati moliyaviy bog'liq bo'lmagan resurslar (erkin xususiy pul mablag'i)ni talab etadi, bundan tashqari maydonlar, xodimlarning tadbirkorlik talanti ham zarur. SHunga ko'ra mazkur faoliyatdan kelgan daromad ham taqsimlanadi. Oliy ta'lim muassasasi ichki taqsimot usuliga ikki xil yondashish mavjud: markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan taqsimlash, bunda tuzilmaviy bo'limlarni saqlash va rivojlantirish majburiyatlari ham ko'zda tutiladi. Daromad ko'plab manbalardan olinganda va ko'rsatilgan xizmat uchun xaq shaklini olganda, moliyani boshqarish tobora murakkablashganda va mujassam bo'lganda, tashqi o'zgarishlarga tez moslashuvchan va qobil bo'lganda markazlashtirilmaganlik afzalligi yaqqol ko'rinadi. OTMning tuzilishi ayni shu tarzdadir. Oliy ta'lim muassasasida muxtor tarkibiy bo'linmalar mavjud bo'lsa, byudjetdan tashqari faoliyatni ikki bosqichining boshqaruvi daromadni taqsimlash tegishli darajasini belgilaydi: oliy ta'lim muassasasi markaalashgan va tarkibiy bo'linmalar markazlashtirilmagan fondlarini shakllantiradi.

Ikkinchi tomondan, moliyaviy okushlarning ikki boshqa darajasi (bosqichi)ni farqlash zarur: tovar ishlab chiqish, ish, xizmat bajarish, bunda oliy ta'lim muassasasi maxsuloti tannarxi va foyda shakllanadi; foydani taqsimlash va sarflash bosqichi. Byudjetdan tashqari faoliyat daromadini taqsimlash quyidagicha amalga oshiriladi: avvalo, oliy ta'lim muassasasi tushgan mablag'ni davlat va ta'lim muassasasi o'rtasida taqsimlaydi, turli darajadagi byudjetga soliqlar jo'natadi va byudjetdan tashqari fondlar (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik fondi)ga to'lovlarni amalga oshiradi. Soliq va to'lovlar majburiy va markazlashgan tarzda OTM buxgalteriyasi xisob raqamidan amalga oshiriladi. qolgan mablag' oliy ta'lim muassasasi (markazlashtirilgan byudjetdan tashqari mablag') va uning byudjetdan tashqari faoliyat bilan band tarkibiy bo'linmasi (bo'linma mablag'i) o'rtasida taqsimlanadi. Taqsimot mutanosibligi faoliyatga jalb etilgan resurs (mehnat, moddiy va moddiymas resurs)larga mulkiy huquq bo'linmalarining OTMni saqlash va rivojlantirish bo'yicha majburiyatidan, OTM va tovar ishlab chiqarish, ish, xizmat bajarishda ishtirok etgan bo'linma markazlashtirilgan qismi xaqiqiy harajatlaridan (tannarx) kelib chiqqan xolda oliy ta'lim muassasasi raxbariyati tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasasi byudjetdan tashqari mablag'ning markazlashgan qismini shakllantirish byudjetni shakllantirishdagi davlat mexanizmiga o'xshash amalga oshiriladi, ya'ni, birinchidan oliy ta'lim muassasasi tarkibiga yagona o'quv-ilmii ishlab chiqarish mujassamasi (YAUUIM) sifatida kiruvchi tashkilot, korxon va muassasa daromadidan «soliqlar» yig'ish xisobiga, bunda muayyan darajada oliy ta'lim muassasasi kapitali qatnashadi; ikkinchidan, davlatga karashli oliy ta'lim muassasasi va uning tarkibiy bo'linmalarining byudjetdan tashqari daromadining bir qismni markazlashtirish xisobiga markazlashtirilgan qismini shakllantirish uchun iqtisodiy asos bo'lib, oliy ta'lim muassasasi asosiy fondlariga amortizatsiya ajratmalari, byudjetdan tashqari faoliyatga jalb etilayotgan resurslar egasi sifatidagi oliy ta'lim muassasasining foydadagi markazlashtirilgan ulushi, shuningdek muxtor tarkibiy bo'linmalar byudjetdan tashqari faoliyatiga markazlashgan tarzda xizmat ko'rsatish bo'yicha oliy ta'lim muassasasi nakladnoy

harajatlari (buxgalteriya, xodimlar bo'limi, byudjetdan tashqari bo'lim, ta'minot bo'limi, xo'jalik xizmati, kommunal xizmat va x.k.) xisoblanadi.

YAUIIM ichidagi yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabat faqat iqtisodiy o'zaro foydali tarzda shakllanishi mumkin, lekin hamisha ma'muriy emas, balki huquqiy bo'ladi. Ma'muriyatning oliy ta'lim muassasasi ichidagi iqtisodiy siyosatida munosabatlar uchchala sub'ekti manfaatlarini xisobga olish kerak: - davlat mulkining egasi va tekin oliy ta'lim kafolati sifatida, mustaqil, o'ziga yetarli ta'minlangan va o'zi rivojlanadigan muassasa sifatida oliy ta'lim muassasasi (tijoratga aloqadorsiz tashkilot) va o'z extiyoji va manfaati bilan shaxs sifatidagi oliy ta'lim muassasasi xodimlari: iqtisodiyot ta'biri bilan aytganda, davlat, byudjetdan tashqari faoliyatdan kelgan foydaning muayyan qismini oliy ta'lim muassasasi tekin o'qitishni ta'minlashga sarflashini talab qilish huquqiga ega; oliy ta'lim muassasasi o'z markazlashtirilgan daromad qismi xisobidan byudjet, tizimini, uni saqlash va strategik rivoji uchun to'ldirishga majbur, xodimlar esa o'z shaxsiy extiyojlarini qondirish, shuningdek oliy ta'lim muassasasidagi qulay infratuzilma, shu jumladan ijtimoiy extiyojlari uchun yetarli bo'lgan mehnat xaqlarini olishlari lozim. YAngicha mulkiy munosabatlar oliy ta'lim muassasasi ichida daromad taqsimoti mexanizmining iqtisodiy asosi hisoblanadi. CHunki uchchala sub'ekt-davlat, oliy ta'lim muassasasi, shaxs mehnat, moddiy, moddiymas resurslarga qonun bilan mustaxkamlangan mulkiy huquq egasi xisoblanadi. SHunday qilib, davlat oliy ta'lim muassasaga operativ boshqarish va muayyan maqsadlar uchun berib qo'yilgan mulk egasi huquqiga ega: oliy ta'lim muassasasi esa byudjetdan tashqari faoliyatidan aloxida balansda oliy ta'lim muassasasi mulkini jamg'aradi, oliy ta'lim muassasasi xodimlari esa o'z mehnat va intellektual mulklari, xususiy mulki huquqiga egalik qiladi, bundan tashqari o'z ishtirokida bunyod etilgan oliy ta'lim muassasasi mulkiga jamoa a'zosi sifatida muayyan munosabatda bo'ladi.

Byudjetdan tashqari faoliyat jarayonida mulkning bu munosabatlarning majmui (asosan, bular ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati va ta'lim xizmatining bir qismi) oliy ta'lim muassasasi mulkiy munosabatlari ikkinchi va uchinchi

bosqichiga taalluqli. Bu munosabatlar ancha murakkab va tuzilmaviy bo'linmalar, shu jumladan, muxtorlash uchun nakladnoy harajatlari hamda daromaddan markazlashtirilgan fondga ajratmalar belgilashda xisob-kitobni talab etadi. Bu to'lovlar majmui ish va xizmat ko'lamining o'sishini rag'batlantiradi, muxtor bo'linmalar ishining iqtisodiy sharoitini YAUIM tarkibidagi tashkilot-yuridik shaxsnikidan qulayroq qiladi.

Xo'jalik shartnomasi nakladnoy harajatlari asosidagi ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlari ish xajmi o'sishiga munosabat, o'zgaruvchan va shartli tarzda, doimiyga bo'linadi (amalda ish xajmi o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi, masalan, amortizatsiya ajratmalari, xonalarni saqlash va x.k). Bu vaziyatlar oliy ta'lim muassasasi ma'muriyatiga ITTKI ko'lami oshgani sari muxtor tarkibiy bo'linmalar uchun nakladnoy harajatlarining stavkasini pasaytirish imkonini beradi, lekin bu pasaytirish oliy ta'lim muassasasi amaldagi harajatlaridan oshmasligi lozim. O'z mablag'i xisobidan oliy ta'lim muassasasi tarkibiy bo'linmalari jihozlar sotib olishning o'sishi ham bu bo'linmalar uchun nakladnoy harajatlarni pasaytiradi.

Mazkur mablag'lar hisobidan ilmiy jihozlar olinadigan xo'jalik shartnomasi asosidagi ishlar bo'yicha harajatlar tuzilmasi qo'shimcha rag'batlantirishni jalb etadi. Bu jihozlar shartnoma muddati tugagach oliy ta'lim muassasasi balansida qoladi. Xo'jalik shartnomasi bo'yicha ITTKIlarda nakladnoy harajatlari stavkasini belgilashda buni albatta hisobga olish lozim.

Markazlashtirilgan fondga daromaddan ajratmalarning miqdori ham oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari o'rtasida hisob-kitob hamda kelishuv uchun asos bo'ladi. Agar bo'linma bu aromadni oliy ta'lim muassasasi strategiyasini hisobga olib, o'ziga qayta investitsiya qilsa, unda uni to'liq markazlashtirishdan ma'no yo'q. Tarkibiy bo'linmalarning oliy ta'lim muassasasiga to'lovlar majmui eng quyi chegarasi byudjetdan tashqari faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasasining harajatlari miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas, yuqori chegarasi esa, oliy ta'lim muassasasining tovar, ish xizmat bozoridagi

raqobati bilan cheklanadi, chunki bu ular qiymatini oshiradi, To'lovlarning oqilona miqdorini belgilash rahbariyatdan maxorat talab etadi.

CHunki byudjetdan tashqari mablag' davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalash manbalaridan biriga aylanadi, bu mablag'larni hisobga olmay, umuman, oliy ta'lim muassasasi kirim va chiqimlarini rejalashtirish mumkin emas. O'z navbatida, byudjetdan tashqari mablag'larni sarflash yo'nalishini rejalashtirish oliy ta'lim muassasasi byudjet mablag'i to'g'risidagi ma'lumotisiz samarali bo'lmasligi mumkin. Oliy ta'lim muassasasi byudjet mablag'i yetarli bo'lmaydi, bundan tashqari, sarflash erkinligi cheklangan. U davlat tomonidan faqat oliy ta'lim muassasasi xodimlariga ish xaqi, talabalariga stependiya, oliy ta'lim muassasasining kommunal xizmat (issiqlik suv, elektroenergiya, aloqa va h.k) harajatlariga yo'naltiriladi, ya'ni oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy funktsiyasi beriladi, uning rivojlanishi uchun xech qanday imkon bermaydi. Boshqacha aytganda byudjetdagi pullar «tushovlangan» bo'ladi. Byudjetdan tashqari-bog'lanmagan (erkin) mablag' strategik rivojlanish rejasini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Davlat oliy ta'lim muassasalari uchun boshqaruvning ikki bosqichidagi tuzilmasiga ko'ra eng samarador bo'lib, oliy ta'lim muassasasining yaxlit byudjetidan (markazlashgan qism birinchi bosqich va uning muxtor tarkibiy bo'linmasi markazlashmagan qism)dan iborat byudjet tizimi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasi byudjet tizimi daromad mablag'larini ular tabiati (barcha bosqichdagi byudjet mablag'lari, byudjetidan tashqari mablag')ga, kelib chiqish o'rni (muayyan tarkibiy bo'linma)ga, shuningdek byudjetdan tashqari faoliyat yo'nalish va turiga ko'ra taqsimlashni ko'zda tutadi, bu rejalashtirilayotgan tovar ishlab chiqarilishi, ish, xizmat bajarilishi uchun oliy ta'lim muassasasi talab qiladigan resurslar hisob- kitobi bilan qo'shib olib boriladi. SHunday qilib, byudjetning sul qismi kaerda qaysi bo'linmaga nimani hisobidan, qanday xajmda daromad qismi shakllanishini yaqqol ko'rsatadi. Byudjetning teng qismi aslida oliy ta'lim muassasasini saqlash va rivojlantirish strategik rejasini aks ettiradi, muayyan topshiriqlar, rejaning maqsadli dasturi qaysi bosqichda (oliy

ta'lim muassasasi markazida yoki uning tarkibiy bo'linmasida) amalga oshirishini va buning uchun qanday pul resurslari ajratilishini ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasasi kirim-chiqimlari bir jinsli belgi-xo'jalik yoki ishlab chiqarish (masalan, kapital qo'yilma, ish xaqi va x.k.) hamda maqsadli tayinlov (o'quv, ilmiy ijtimoiy profamma) bo'yicha guruxlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi byudjet tizimini ishlab chiqarish va amalga oshirish oshkora, maslaxatlashuv asosida bo'lishi va shu tarzda ovoz berishning demokratik usuli bilan qaror qabul qilishni ko'zda tutadi. Vaqti-vaqti bilan nazorat o'tkazish, hisob berish oliy ta'lim muassasasi resurslaridan samarali foydalanishni oshiradi va daromadlarni taqsimlashda kelishmovchiliklar kelib chiqishi oldini oladi. Oliy ta'lim muassasasi byudjet tizimini rejalashtirish jarayonida oliy ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari erkin mablag'i muhim o'rin tutadi. U davlat oliy ta'lim muassasasiga moliya oqimi yo'nalishiga amalda ta'sir etishiga imkon beradi. Byudjetni rejalashtirishning boshqa o'ziga xos tomoni-faoliyatning muayan yo'nalishi bo'yicha byudjetdan tashqari daromadning maqsadli yo'nalishi: masalan, ijaradan keladigan. Daromad ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha prorektor tasarrufiga kelib tushadi va oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnika negizini saqlash uchun sarf qilinadi: xo'jalik shartnomasi asosidagi ITTKIdan kelgan daromad II bo'yicha prorektor tasarrufiga tushadi va maqsadli programmalarga sarflanadi.

Strategik rejalarni moliyaviy ta'minlash, ya'ni o'z maqsadini ishlab chiqarish, o'z vazifasini ado etishni amalga oshirishga olib keluvchi harakatlar va qarorlar majmui oliy ta'lim muassasasi byudjet tizimi (daromad va harajat yagona ro'yxati)ni ishlab chiqarishda markaziy vazifa hisoblanadi. Strategik rejalash-oliy ta'lim muassasasi kelajagini strategik oldindan ko'ra bilish, tashqi muxitga moslashish, oliy ta'lim muassasasi ichki tashkil etilishi. Resurslarning yo'nalishini qisqa muddatli tadbirlar yoki strategik rejani amalga oshirish yo'nalishi belgilar ekan oliy ta'lim muassasasi byudjet tizimida har qanday xolda ham quyidagilar ko'zda tutiladi:

**Nobyudjet mablag'larni tushirish bo'yicha
SAVOLNOMA⁷**

2-jadval

№	Savollar nomi	Ulchov birligi		Ma'sul	Izoh
1	2	3	4	5	6
1	Universitet professor-o'qituvchilarining soni shu jumladan: Fan doktori, professor. Fan nomzodi, dotsent. Fan nomzodi, katta o'qituvchi. Katta o'qituvchi. O'qituvchi.	kishi kishi kishi kishi kishi kishi		Iqtisodiyot va moliya ishlari prorektori, Iqtisodiyot bo'limi	
2	Universitetga 2011-2012 yillar davomida nobyudjet mablag'lar tushumi, shu jumladan: Tadbirkorlik hisobidan tushgan mablag'.	mln.so'm mln.so'm		Iqtisodiyot va buxgalteriya bo'limi	
3	Universitetning umumiy yer maydoni va binolar. SHundan foydalanilmay turgan yerlar va binolar.	gektar		Iqtisodiyot va buxgalteriya bo'limi	
4	Universitetga birlashtirilgan 50 gektar yer maydonining holati.	gektar		Iqtisodiyot va buxgalteriya bo'limi	
5	Universitetdagi kompyuterlar soni. SHundan tadbirkorlik asosida foydalanilayotganlari	dona dona		ARM, ATM	
6	Jami nobyudjet mablag'lari. SHundan, shartnoma asosida ta'lim oluvchi talabalardan tushadigan mablag'lar miqdori.	mln.so'm mln.so'm			
7	Xomiyliklarni buxgalteriyadan o'tkazish tartibi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.				
8	Universitetda mavjud avtomashinalar rusumlari va ulardan foydalanish holati.				

⁷ Muallif tomonidan qayta ishlangan

- moliyalash manbaini oshirish va rejalashtirish (diversifikatsiya);
- mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish, joriy harajatlar tuzilmasini takomillashtirish;
- resurslarni ham qisqa muddatli yuqori foyda keltiruvchi loyixalarga, ham uzoq muddatli strategik programmalarga investitsiyalash;
- oliy ta'lim sarflarini ularni qisqartirish va resurslarni tejash hisobiga kamaytirish;
- samaradorlikni hisoblashda tashqi omillardan foydalanish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida moliyani malakali boshqarish moliyaviy menejment oliy ta'lim muassasasi uchun tobora ahamiyatliroq bo'lib bormoqda. Chunki byudjetdan tashqari moliya yo'nalishlari haqidagi strategik qaror qayta investitsiyalash xususidagi qaror, ya'ni moddiy-texnik negizni intensiv rivojlantirish va oliy ta'lim istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash oliy ta'lim muassasasida bozor talabiga ega bir qator ixtisosliklar ochish imkonini beradi, bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasasi daromadini oshiradi.

2.3.Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni istikbollari.

rivojlantirish

Bugungi kunda ta'lim bozorini shakllantirish va byudjetdan tashqari mablag'lar topish barchamizning oldimizdagi eng asosiy masalalardan biridir. 2013 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishda 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng ustuvor yo'nalishga bag'ishlangan ma'ruzasida Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov bu yo'nalishda qilinadigan ishlarni alohida ko'rsatib va barchamizning oldimizga muhim vazifalarni qo'ydi.

SHuning uchun ham universitetda ta'lim bozorini shakllantirish, tayyorlanayotgan bakalavrlar va magistrning sifat darajasini zamonaviy talabalar darajasiga ko'tarish va viloyatdagi tashkilotlar, korxonalar hamda muassasalar bilan hamkorlikda buyurtmachilar portfelini shakllantirish lozim.

SHularni xisobga olib bitiruvchi bakalavr va magistr mutaxassislar yarmarkasini tashkil qilib shartnomalar asosida ishga oluvchilardan ma'lum bir mablag'ini tushurushini tashkil etishi kerak.

SHuningdek, universitet professor-o'qituvchilari ilmiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, buyurtmachilar ehtiyojlariga asosan kichik mutaxassislar tayyorlovchi ta'lim kurslari tashkil qilish lozim. Ayniqsa, viloyatimizda yagona bo'lgan universitetimiz qoshida oliy o'quv yurtlariga kiruvchi abituriyentlarni test sinovlariga tayyorlovchi pullik tayyorlov kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Har o'quv yili bitiruvchilarini ishga taqsimlanish jarayonida qo'shimcha berilishi kerak bo'lgan ta'lim xizmatlarini aniqlash, yangi tuziladigan shartnomalariga tegishli qo'shimchalar kiritishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

tashkilotlar, korxonalar va muassasalarning buyurtmalariga asosan bitiruvchilarni maqsadli shartnoma asosida o'qitish;

- buyurtmachilarning talablari asosida bitiruvchi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- sertifikat beriladigan pullik o'quv kurslarini ochish.

Ayni paytda, barcha fakultetlarda ta'lim bozorini shakllantirish bo'yicha 2011 yilga mo'ljallangan kalendar ish rejalari tuzish va ularning bajarilishi nazoratini universitet reja va marketing bo'limiga yuklash maqsadga muvofiqdir.

2. Byudjetdan tashqari topilgan mablag'larning 60%i to'lov shartnoma asosida ta'lim oluvchi talabalar tomonidan to'langan bo'lib, bu mablag'lar jami 11 mlrd so'mni tashkil qiladi.

Universitetda barcha imkoniyatlar mavjud bo'la turib, ya'ni ilmiy-tadqiqot ishlari, ta'lim xizmatlari, tijorat faoliyati va yerlardan maqsadli foydalanish evaziga nobyudjet mablag'lar topish juda past darajada.

Universitetda 500 dan oshiq professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa shulardan ayrimlari, ya'ni sanoqli 3-4 nafari fundamental tadqiqotlarda ishtirok etib goliblikni qo'lga kiritgan. Jumladan:

2010 yilda prof. X.To'raevning fundamental tadqiqotlar dasturidagi loyihasi 19 mln.

Prof. e.Bobomurodovning loyixasiga esa 16 mln. so'm mablag' ajratilgan va bu mablag'lar universitet hisob raqamiga kelib tushgan.

2011 yilda ham prof. H.To'raev loyihasi 23 mln.

Prof. e.Bobomurodov loyihasi 19 mln. so'm mablag' ajratilgan.

SHuningdek, 2011-2012 yillarga mo'ljallangan innovatsion loyixalar tanlovida H.To'raev va S.Tursunovlarning loyihalari g'olib deb topilib, har ikkala loyihaga 2011 yilda 50 mln so'mdan mablag' ajratish rejalashtirilgan va tegishli shartnomalar imzolangan

- Pullik kurslar **84 703 500** so'm pul tushirgan

- Avtomobil haydovchilik kursidan **12 100 000** so'm

- Moliya-menejment o'quv maslahat markazi 2009 yilda 12 100 000 so'm tushirgan bo'lsa, 2010 yilda 1 so'm ham universitet hisob raqamiga tushirilmagan.

Mintaqa Til o'rgatish markazi 2010 yilda **17 500 000** so'm tushirishni rejalashtirilgan bo'lsada, bugungi kunda **8 819 000** so'm pul mablag'lari tushirilgan;

Malaka oshirish kurslaridan **35 970 000**so'm;

Ijaralardan **5 184 000** so'm;

YOtoqxonalar xizmatlaridan- **18 090 500** so'm;

Xo'jalik shartnomalaridan – **4 729 200** so'm;

Metallom bo'yicha – **25 057 400** so'm;

Jayxun jurnalidan – **2 360 200** so'm

Jami ta'lim va servis xizmat sohalari bo'yicha **100 210 300** so'm mablag'universitet hisobxonasiga tushgan.

Komissiya a'zolari fakultetlarning jamoasi tomonidan bir qancha xomiylik asosida topilgan mablag'larni o'rganib chiqishdi.

barcha bayramlar uchun va o'quv xonalarni jihozlash uchun stendlar;

manzarali daraxt va gul ko'chatlarini olish va o'tqazish;

laboratoriya stendlarini tayyorlash;

kurs ishlari va kurs loyihalariga ko'rgazmali stendlar tayyorlash;

ko'kalamzorlashtirish ishlariga qilingan harajatlar.

fakultet auditoriyalarini ta'mirlash va jihozlash ishlarini fakultetprofessor-o'qituvchilar, talabalar hamda homiy tashkilotlar bilan bajarilganligini ko'rish mumkin.

Biroq xomiylik asosida topilgan mablag'larni hisobga olish jarayonida shu masala aniq bo'ldiki, barcha fakultetlarda homiylik masalasiga e'tiborsizlik bilan qaralgan.

Qilingan ishlar xajmi ko'p, lekin ro'yxatga olinmagan, kim tomonidan bajarilganligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q, universitetning byudjetdan tashqari mablag'lar topish rejasiga kiritilmagan. Faqatgina universitet hisobxonasi xodimlari 2-jadvaldagi jami **59 209 282** so'mlik bajarilgan homiylik ishini universitet uchun ro'yxatga olingan. Bular fakultetlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan.

Ushbu bajarilgan xar bir ishlarni universitet hisobxonasi tomonidan o'z vaqtida rasmiylashtirish, vazirliklarga ma'lumotlar taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Byudjetdan tashqari mablag' topishning faqatgina xomiylik va yuqorida keltirilgan sohalarga e'tibor berish bilan bir qatorda universitet Moliya va

Iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor majmuasining raxbarligida reja asosida barcha fakultet dekanlari hamda professor-o'qituvchilar birgalikda ishlarni amalga oshirishga e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Jumladan: fakultet ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirish uchun pullik tayyorlov kurslarini ochish; (buning uchun baza ilmiy salohiyat yetarli).

universitet professor-o'qituvchilariga va tadbirkorlik sub'ektlariga o'quv qo'llanma va tavsiyanomalar ishlab chiqish va ularni joylarga yetkazish maksadida Mini tipografiya tashkil etish. (Rezogrof, rangli printer va boshqa kerakli bo'lgan jixojlar va mutaxassislar yetarli);

Talabalar va yosh tadbirkorlarga Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshlash uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etish;

* Talabalar, professor-o'qituvchilar va tadbirkorlarga "Biznes reja" tuzish hamda huquqiy masalalarni hal etish bo'yicha konsalting xizmatini tashkil etish.

* Viloyat AT Banklari filiallarini va minibanklarning tashkil etish bo'yicha hududiy marketing tadqiqotlarini o'tkazib berish xizmati qilish;

* Talabalar va yosh tadbirkorlarga tikuvchilar hamda zardo'zlik o'quv kursini tashkil etish;

* Universitet hududida tadbirkorlarni rivojlantirish maqsadida oshxona, rasmxona, etikdo'z, sartaroshxonalarini ishga tushirishda moliyaviy yordam ko'rsatish;

* Ikkilamchi resurslar, ya'ni mebel jihozlarini qayta ta'mirlash tsexini tashkil etish;

* Universitetning o'zida beton g'isht, bruschatka va boshqa maxsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

* Talabalarning tadbirkorlik faoliyatiga kizikishini orttirish maksadida Termiz davlat universitetida issikxonalar kurish, manzarali, mevali daraxt va gul ko'chatlarini yetishtirishni yulga kuyish va kushimcha daromad olishlarini tashkil etish;

Universitetga ajratilayotgan 50 gektarlik hududga mutaxassis ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarning nazariy bilimlaridan foydalanib bir qancha, ya'ni mevali, manzarali ko'chatlar, gul ko'chatlari, noyob daraxtlardan zaytun, safura, kashtan, archalar ko'chatlari yetishtirish, issiqxona qurish, poliz, meva-sabzovot,

chorvachilikni rivojlantirishni yo'lga qo'yish imkoniyatlaridan foydalanish;
daraxtlarni payvand qilish, karlik mevali daraxtlar yetishtirishni yo'lga qo'yish.

Universitetning 7000 kishilik jamoasi uchun barcha o'quv binolari va talabalar uylarida minutka kafelar ochish;

Talaba yoshlarga qo'shimcha daromad topish maqsadida kulinariya mahsulotlari tayyorlash tsexini tashkil etish;

Maxsus mablag'lar hisobida universitet xududi va fakultetlar oldida kantselyariya mollari do'konlarini ochish;

Universitet Axborot texnologiyalari markazi va Informatika kafedralarining bazasida kompyuter savodxonligi kursini, kompterni ta'mirlash Universitetda bugungi kunda innovatsion va fundamental tadqiqotlar bo'yicha sanoqli loyihalar (prof. To'raev H., prof. Bobomurodov e., prof. Tursunov S.) amalga oshirilgan. Barcha kafedralar o'z yo'nalishlari bo'yicha fundamental va innovatsion ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishlari, tegishli tanlovlarda ishtirok etib, davlat grantlariga sazovor bo'lish, hamda turli buyurtmachi-tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzib, byudjetdan tashqari mablag'lar topishlari lozim. Bundan tashqari universitetning har bir tuzilmaviy birlik (boshqarma, bo'lim, kafedra)lari o'z imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari mablag'larni tushirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi bugungi kunning talabidir.

O'tgan 2010 yilgi hisobotda xo'jalik shartnomalari va pullik kurslar to'g'risida 4.729.200 so'm mablag' 1 jadvalda ko'rinib turibdi. Biroq komissiya a'zolari shu masalada fakultet raxbariyatlari va kafedra mudirlari bilan birgalikda 2011 yilda yaxshi natijalarga erishish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerakligi lozimdir:

- Surxondaryo viloyatidagi eng katta muassasalardan **viloyat xalq ta'limi** bo'limi, viloyat **o'rta-maxsus** kasb-hunar ta'limi boshqarmasi, Sog'liqni Saqlash, Iqtisodiyot, Moliya, Soliq, Markaziy bank, Qishloq va suv boshqarmasi, fermer xo'jaliklar uyushmalari va boshqa tashkilot va muassasalar bilan xo'jalik shartnomalarini tuzish rejalarini ishlab chiqish lozim;

- fermer xo'jaliklari bilan shartnoma asosida ularning faoliyati bo'yicha turli xizmatlar ko'rsatish orqali daromad olish mumkin. Masalan, ularning faoliyatini tahlil qilib, faoliyatini rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berish, biznes rejalarini tuzish, yer sharoitiga mos navlarni tanlab berish va hokozolar;

- Axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi vahuquqshunoslik bo'yicha malaka oshirish kurslarining dasturlari ishlab chiqilib, mazkur kurslarda eng avvalo fermer xo'jaligi raislari, so'ngra boshqa xodimlarni, jumladan otaliqqa olingan kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining malakasini oshirish lozim;

- Komissiya a'zolarini universitetning tarix, fилоlogiya, tabiat geografiya, iqtisodiyot, pedagogika fakultetlari professor-o'qituvchilari viloyat tashkilot, muassasa va korxonalarida o'qigan ma'ruzalari uchun **haq olmaganlar**, ularning xar bir ma'ruzalari uchun oldindan sharnomalar imzolaniб pul to'latishni yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3-sentyabrdagi 414-sonli «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorining 3-bandi bilan har bir byudjet tashkiloti quyidagi manbalar hisobidan qo'shimcha daromadlar olishi maqsadga muvofiqligi belgilab qo'yilgan:

faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;

vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini ijaraga berishdan;

yuridik va jismoniy shaxslardan homiylik (beg'araz) yordami qabul qilishni belgilab qo'yilgan.

SHuningdek, mazkur Qarorning 4-bandida yuqorida ko'rsatib o'tilgan manbalardan qo'shimcha daromad olayotgan byudjet tashkilotlari **2015 yil 1 yanvargacha** Davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar va yig'implarning barcha turlaridan ozod qilinganligi, hamda bo'shab qolgan mablag'lar moddiy-texnika va ijtimoiy bazani mustahkamlashga, shuningdek, xodimlarni moddiy rag'batlantirishga maqsadli yo'naltirilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

1. Ta'lim bozorini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, byudjetdan tashqari mablag' topishni takomillashtirish yo'llari haqidagi komissiya raisi O.Ro'ziev axboroti ma'lumot uchun **qabul qilinsin.**

2. Maqsadli shartnoma asosida o'qitish, buyurtmachilarning talablari bilan bitiruvchilarni tayyorlash va sertifikat beriladigan maxsus pullik kurslarni ochish Moliya va iqtisodiyot masalalari bo'yicha prorektor M.Gadayshoev, marketing xizmatlari bo'limi boshlig'i e.Imomov va fakultet dekanlari zimmasiga **yuklatilsin.**

3. SHartnoma asosida turli xizmatlarni ko'rsatish, ijtimoiy, ilmiy va o'quv-uslubiy tadqiqotlar o'tkazish uchun xo'jalik shartnomalarini tuzib, byudjetdan tashqari mablag' topish uchun universitet Ilmiy ishlar prorektori CH.Normurodov va barcha kafedra mudirlari mas'ul qilib **belgilansin.**

4. Xo'jalik hisobidagi kurslarni tashkil qilish, me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlash, kurslarni sifatli, mazmunli bo'lishi ustidan nazorat o'rnatish fakultet dekanlari va kafedra mudirlari zimmasiga **yuklatilsin.**

5. Moliya va Iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor M.Gadoyshoevga:

5.1. Universitet qoshida o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash va qoplash asosida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik hisobidagi korxonalarining faoliyati nazorat qilinsin va tegishli chora-tadbirlar **belgilansin.**

6. Bosh hisobchi B.To'xtamishevga:

6.1. Ta'lim xizmati, servis soxasi, kitob mahsulotlarini sotish va buyurtmachilarga yetkazib berishda va barcha tushumlar bo'yicha universitet ulushi (belgilangan tartibda) **hisobga olinsin.**

7. Xomiylik asosida topilgan barcha mablag'lar rejalashtirish bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilib, pulga aylantirilgan holda buxgalteriyaga kirim qilish bosh hisobchi zimmasiga **yuklatilsin.**

8.Ushbu qarorning nazorati iqtisodiyot-moliya buyicha prorektor M.Gadoyshoev zimmasiga yuklatilsin.

2-боб бўйича хулоса

Ta'lim muassasasini moliyalashtirish uchun mablag davlat tuzil- malaridan (davlat byudjetidan), ta'limning kontrakt tulov shartnoma shaklidan, tovarlar ishlab chikarish va sotishdai (ish, xizmatdan), korxonada va xususiy shaxslardagi (byudjetdan tashkari) mablagdan kelishi mumkin.

Oliy maktabni qo'shimcha moliyalashning muhim manbai bo'lib, tayney iqtisodiy faoliyat xisoblanadi. Xalqaro aloqalarni kuchli markazlashtirilgan boshqaruvdan to'la mustaqil munosabat olib borishga o'tkazilishi oliy ta'lim muassasalarining tashqi faoliyat olib borishini kuchaytiradi, bu faoliyat asosini o'quv jarayoni, tadqiqot, axborot xizmati tashkil etadi. Bu ilmiy-texnikaviy shartnomalar, respublika oliy ta'lim muassasalarining chet el oliy ta'lim muassasalari va firmalari bilan tadbirkorlik bitimlari tuzishini keskin oshirish kerak.

OTM moliya mexanizmi tuzilishiga davlat moliya siyosati sezilarli ta'sir etadi. Davlat boshqaruv mexanizmida ham byudjetga to'lovlar, ham byudjetdan moliyalash birdek muhimdir.

Oliy ta'lim muassasasining, o'zlari davlat moliyalashiga kamroq muxtoj bo'layotganlari, ko'proq xususiy ishlari evaziga mablag' topishlari tufayli muxtor bo'lishga intilishlari davlat tomonidan oshib borayotgan nazorat bilan muvozanatlanmoqda. Oliy ta'lim muassasasi faoliyati ustidan muntazam nazorat tartibi barpo etilmoqda. AqSHda, masalan, turli akkreditatsiya agentliklarining (kasbiy yoki xududiy), ishi rag'batlantirilmoqda. Frantsiyada ta'limni baholash bo'yicha maxsus milliy qo'mita tuzildi.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash manbalari (davlat va xususii manbalar) qaytib konsortsium, oliy ta'limni tadbiq etuvchilar va YUNESKOning oliy ta'lim bo'yicha yevropa markazi (SEPES) fikrini kiritish o'rinlidir. Ular aralash moliyalash sof davlat yoki sof xususiy moliyalashdan afzaldir, bunda aralash moliyalash ham davlat, ham xususiy ta'lim muassasalari uchun ma'qul keladi degan fikrga keldilar.

Xulosa va takliflar.

Ta'lim muassasasini moliyalashtirish uchun mablag davlat tuzilmalaridan (davlat byudjetidan), ta'limning kontrakt-gulov shartnoma shaklidan, tovarlar ishlab chikarish va sotishdai (ish, xizmatdan), korxonalar va xususiy shaxslardagi (byudjetdan tashqari) mablagdan kelishi mumkin.

Byudjet tasnifi daromad va xarajat moddalarini guruxdash davlat tizimi buyicha amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi byudjet tizimi xukuk negizining yagonaligi, tasniflashning ngona sistemasidan foydalanishi, kuzatmalar va rejalarning yagona xisobotlar va rejalarning shakli xamda zaruriy statistik xisobot takdim etishi bilan ta'minlanadi. Oliy ta'lim tizimi maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlarda belgilangan. Bu vazifalar universitetlar, akademiyalar va institutlarda hal etiladi. Oliy ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni samarali boshqarish uchun ham milliy, ham institutsional miqyosda ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mas'ul bo'lgan shaxslar o'rtasida, professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalar, mehnat sohasi, OTMlar va jamiyat o'rtasida yaqindan hamkorlik zarur. Boshqarishdan asosiy maqsad oliy ta'lim muassasasining institutsional vazifasini ta'lim berish, kadrlar tayyorlash yuqori darajasini ta'minlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan mustahkamlashdan iborat bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalari orasidagi mavjud kasbiy va boshqa farqlarga qaramay tijorat tuzilmalar faoliyatidan yuqori foyda olish uchun oliy ta'lim muassasasi va uning tijorat tuzilmasi amaliy faoliyati modeli tuzildi. Bu modelda ikki talqin-tijorat tuzilmalari oliy ta'lim muassasasi tarkibi ekanligi; tijorat tuzilmasi bunday bo'lmasligi ko'zda tutilgan. Xar ikki talqin oliy ta'lim muassasasi va tijorat tuzilmasi o'rtasidagi butun munosabatlar majmuini aniq ifodalaydi.

SHunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim muassasasining vazifasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va olib borish bo'yicha katta va turli-tuman ishlarni amalga olish, moliyalashning byudjetdan tashqari manbalarini izlash va jalb etishdan iboratdir. Oliy maktabda byudjetdan tashqari moliyalashni yanada kengaytirish va takomillashtirish, tijorat faoliyatini rivojlantirish ishlab

chiqarish bilan uyg'unlashishning turli shakllaridan foydalanish bilan bog'liq. Bunda mutaxassislar va raxbarlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha faoliyatni tashkil etish aloxida ahamiyat kasb etadi (istiqbolda ham shunday bo'lib qoladi), bu esa mehnat hamda ta'lim xizmati bozoridagi vaziyatni mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish talablarining o'zgarishiga tezkorlik bilan moslashish uchun o'rganishni talab etadi. Oliy maktab kuchli intellektual negiz va ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha soxalari bo'yicha mutaxassis xodimlarga ega. SHuning uchun moliyalashning byudjetdan tashqari qo'shimcha manbalarini jalb etishda, asosiysi, oliy ta'lim muassasasi faolligi xisoblanadi. CHunki, sustkashlik bugungi, bozor raqobati kuchaygan kunda oliy ta'lim muassasasini istiqboldagi taraqqiyotdan maxrum etishi mumkin. Talabalar, aspirantlar va o'qituvchilarni moliyalashning byudjetdan tashqari manbalarini izlash va jalb etish bo'yicha ishlarga keng tortish mazkur faollik ko'rinishlaridan biridir. YUqorida aytilganlardan tashqari to'lov asosida ta'lim xizmati ko'rsatish, noshirlik faoliyati va boshqalar ham byudjetdan tashqari an'anaviy manba sanaladi.

Keyingi paytlarda oliy ta'lim tizimini isloh qilish "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini" ruyobga chiqarish to'g'risida matbuotda ko'plab chiqishlar qilinmoqda. Ta'lim tizimini isloh qilishning turli variantlari taklif qilinmoqda. Ularning ko'pchiligi chet el tajribalariga tayangan holda islohotlarni jadal olib borishni taklif qilmoqdalar. Ammo har qanday rivojlangan chet el ta'lim tizimining O'zbekiston ta'lim tizimiga ko'r ko'rona tadbiq qilib bo'lmaydi. Masalan, Amerika ta'lim tizimi qanchalik takomillashgan bo'lmasin uni to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston ta'lim tizimiga olib kirish samarali natija bermaydi.

Oliy talimning maqsadi O'zbekistonni yuksak rivojlangan demakratik mamlakatlar darajasida ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy va rivojlanish bilan ta'minlay oladigan, yuksak ma'naviy, madaniy va ahloqiy fazilatlariga ega yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar yetishtirishdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb-hunar dasturlari asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil qilish va malakali kadrlar yetishtirishni ta'minlash;

- mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi istiqbollari, jamiyat talabalariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlar o'qitishni tashkil qilishga uning uslublarini muntazam takomillash;

- yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi va umuminsoniy kadrlarni bilish asosida, mustaqillik g'oyalari, Vatan, oila, tabiatga mehr va insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

- o'quv amaliyotiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, o'qitishni shaxsiylashtirish va masofaviy vositalar bilan ta'minlash;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqarish va amaliyotiga kiritish;

- ilmiy-pedagogik kadrlar va talabalarning ilmiy tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muhitni shakllantirish;

- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillash va ular mustaqilligini kengaytirish; ta'rischilar, va'siyalar, jamoat kuzatuv kengashlari shaklida yangi jamoat boshqaruvini kiritish;

- oliy ta'lim soxasida yuksak rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish.

Foydalanilgan va kullanilgan adabiyotlar ruyxati.

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Prezident Qarorlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston" 2012 y. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi to'g'risida" gi Qonuni. T.: "O'zbekiston" 2008y. 35b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi Iqtisodiy nochor korhonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2009yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Uy-joy fondini foydalanishga tayyor xolda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirish to'g'risida 2009 yil 29 yanvar, PQ-1051 son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida, 2010 yil 27 yanvar, PQ-1271-son.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007yil 18 maydagi "YOsh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.//"Turkiston", 2007yil 19 may.

13. Prezidentimizning 2009 yil 6 apreldagi “Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo’jalik sub’ektlari bo’sh pul mablag’larini jalb etishni yanada rag’batlantirish qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori.
14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6-apreldagi “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsion faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1317son.
15. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24-sentyabrdagi “Plastik kartochkalar asosida naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 445-sonli Qarori.
16. "O’zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to’plami", 2007 yil, 41-42-son, 425-modda.

II. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. – T., O’zbekiston 1995.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. “SHarq”, 1997.
3. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari.- T.: 1998
- 3a. Karimov I. A., O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, - T.: “O’zbekiston”, 2011. 447 b.
- 3b. Karimov I.A. O’zbekiston **XXI** asrga intilmoqda. – T., 1999.
- 3v. Karimov I. A., 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. Xalq so’zi gazetasi. 2012 y. 20-yanvar.
- 3g. Karimov I. A., YUksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad. Xalq so’zi gazetasi. 2012 y. 18-fevral.
4. Karimov I.A. O’zbekiston – bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li.- T., 1998
5. Karimov I. A., 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. Xalq so’zi gazetasi. 2012 y. 20-yanvar.

6. Karimov I. A., YUksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad. Xalq so'zi gazetasi. 2012 y. 18-fevral.
7. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menedjmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.
8. Faberman B.L. Peredovyy pedagogicheskie texnologii. T.: Fan, 2000.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Qarori (№4, 05.04.98 y.), Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida".
10. Saidov M.X. Formirovanie byudjeta vuza po istochnikam finansirovaniya, ekonomicheskij vestnik Uzbekistana. № 11, 12, 2000.
11. Saidov M.X. K voprosu upravleniya kachestvom vysshego obrazovaniya. Ta'lim muammolari. №2, 2000.
12. Popov ye. Uslugi obrazovaniya i ryнок. Rossiyskiy ekonomicheskij jurnal, 1992 - № 6.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.
2. Faberman B.L. Peredovyye pedagogicheskie texnologii. – T.: Fan, 2000.
3. SHepel V.M. CHElovekovedcheskaya kompetentnost menedjera. Upravlencheskaya antropologiya. – M.: Narodnoe obrazovanie, 1999.
4. YUdin V. Rol i mesto VUZa v sisteme ryночных otnosheniy. Vysshee obrazovanie v Rossii. №1

IV. Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Litvinova N., SHermetova V. Marketing obrazovatel'nykh uslug S.- P.: Libra 1993
2. Peregudov L. V. Fayzieva A.R. Natsionalnaya programma po podgotovke kadrov. Tashkent. 1997

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (№ 48, 05.01.98 y) «Ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini shakllantirishni va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida».
4. Karimov U. «Axborot tizimlari va jarayonlari» mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash jarayonlarining qiyosiy tahlili. "O'zbekiston respublikasi oliy iqtisodiy ta'lim tizimini rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlari tajribasi asosida takomillashtirish" Ilmiy-uslubiy anjuman tezislarini. TDIU, Toshkent, 2005 y. 56-62 b.

V. Internet saytlari

1. .www.forex/com/.
2. .www.bankinfo.uz.
3. .www.uzland.uz/
4. <http://www.bankofend/couk/maket/money/index/htm>.
5. www.referat.ru.
6. www.Lex.uz

MUNDARIJA.

KIRISH.....	3-6
1. BOB. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini	
moliyalashtirish va boshkaruv amaliyoti.....	7
1.1.Oliy ta'limni moliyalashning uziga xos xususiyati.....	7-11
1.2.Oliy ta'lim muassasalarni rivojlantirishning	
ijtimoiy,iktisodiy omillari.....	11-23
1.3. Oliy ta'lim tizimida byudjet.....	24-31
2.BOB. Oliy ta'lim muassasalarini boshkarishni rivojlantirish	
omillari va istikboli.....	32
2.1.Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshkarish	
va uning taxlili.....	32-40
2.2. Oliy ta'limni moliyalashda byudjet va nobyudjet resurslarni	
samaradorligi.....	41-49
2.3. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni	
rivojlantirish istikbollari.....	50-57
Xulosa va takliflar.....	58-61
Foydalanilgan va kullanilgan adabiyotlar.....	62-65

